

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ijtimoiy fanlar kafedrası

**O‘ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH
QONUNLARI**

mavzusi bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma



**Jizzax
“Sangzor” nashriyoti
2014**

O'ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH QONUNLARI: o'quv-uslubiy
qo'llanma/ Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: S. Karimov, mas'ul muharrir: B.Ochilova;
Jizzax, Sangzor, 2014 yil.84 b

Mas'ul muharrir: Falsafa fanlari doktori B.Ochilova

Taqrizchilar: Falsafa fanlari nomzodi A. Amanullayev

Katta o'qituvchi B. Toshboev

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: S. Karimov

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17 sentyabrdagi 392-sonli qarori bilan tasdiqlangan falsafa fanidan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo'lib, dasturning "Rivojlanish falsafasi" mavzusining "O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari" masalalari tahliliga e'tibor qaratilgan.

*Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Jizzax davlat pedagogika
instituti ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

MUNDARIJA:

So'z boshi	4
O'zaro aloqadorlik va rivojlanish to'g'risidagi qarashlar tarixi.....	10
Qonun tushunchasi	12
O'zaro aloqadorlik va rivojlanish tamoyillari.....	19
Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni	27
Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni.....	33
Inkorni-inkor qonuni.....	44
Falsafiy qonunlarning o'zaro aloqadorligi.....	55
Ma'ruzani olib borish texnologiyasi.....	57
Ilovalar.....	60
Mavzu bo'yicha testlar.....	72
Glossariy.....	84

Bizning farzandlarimiz nihoyatda iste'dodli, aql-u, zakovat bobida hech kimdan qolishmaydi. Ularning iqtidorini qadrlash, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, Vatanning mard va fidoiy farzandlari etib tarbiyalash uchun etarlicha shart-sharoit yaratib berish har birimizning sharaflari burchimizdir.

ISLOM KARIMOV

So'z boshi

Borliqdagi narsa va hodisalarning eng umumiy qonuniyatlari va hususiyatlarini o'rganuvchi falsafa fanini asoslarini bilish barcha mutahassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun zarur va ahamiyatlidir. Chunki, aynan falsafa fani talabalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantiradi. Bu hususda O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov, - "falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam- meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi? bundan qat'iy nazar hayotning, o'z kasbining ma'no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur hulosalar chiqara olishi kerak. Shu bois tarixchi bo'lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo'lish darkor"¹, deb takidlaydi. Falsafa tarixida har doim o'ziga hos bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelgan o'zaro aloqadorlik va rivojlanish masalasini o'rganish ham aynan shu jihatdan alohida ahamiyatga ega.

Zero, tabiat va jamiyatda hech bir narsa va hodisalar ajralgan, boshqa hodisalarga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'la olmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Sirdan qaraganda narsalar, voqealar bir-birlaridan ajralgandek bo'lib ko'rinishi mumkin. Aslida esa ular o'zaro aloqada bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi, bir-birini taqazo qiladi. Shuning uchun olamdagi narsalarning in'ikosi bo'lgan inson tafakkuri voqelikdagi narsa va hodisalarni butun tashqi olam bilan birga jonli va turli-tuman aloqasini qamrab olishi, aks ettirishi kerak.

Borliqni falsafiy tushunish faqat uning turlari va ularning o'ziga xos xossalarini bilib olishdangina iborat bo'lmay, balki borliqni tashkil etgan narsa va hodisalarning o'zaro aloqalari va bog'lanishlarini, o'zgarish va rivojlanishlarini ham bilishni taqozo qiladi. Chunki, olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi. Narsa, hodisa va voqealar o'rtasidagi ichki bog'liqlik, aloqadorlik va bir-biriga ta'sir

¹ Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunning ustivor vazifasidir.// Inson, uning huquq va erkinliklari –oliy qadriyat. T.: "O'zbekiston", 2006. 117-bet.

qilishlik ob'ektiv qonuniy holdir. Ana shu qonuniyatlarni ochib berish esa fanning, xususan, falsafa fanining vazifasidir.

O'zbekistonda jamiyatni yangilash va demokratlashtirish jarayoni ketayotgan hozirgi sharoitda jamiyat taraqqiyotini dialektik tushunish, uning rivojlanish qonuniyatlarining mazmun mohiyatini to'g'ri anglash - mavjud muammolar, tahdid va ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, shuningdek, aniq maqsadlarni ko'zlagan islohatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

DASTUR

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Rivojlanish, o'zgarish va taraqqiyot tushunchalari. Taraqqiyotning turlari. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari: voqelik qonunlari, fan qonunlari, bazis va lokal qonunlar, falsafa qonunlari. Falsafa qonunlarining asosiy shakllari. Qarama-qarshilik va ziddiyat. Qarama-qarshiliklarning tasnifi. Ziddiyatlarning tasnifi. Ayniyat va tafovut. Ziddiyatlarning turlari. Miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Sifat, miqdor, me'yor, xossa, sakrash kategoriyalari. Sakrashning turlari. Inkorni-inkor. Inkorni inkorda vorisiylik.

AXBOROT USLUBIY TA'MINOT

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Malakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizat siya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T., 1993
8. Bozarov D. Sinergetik paradigma. –T.: Tafakkur, 2010.
9. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojida o'rni- T.: “Star - Poligraf”, 2010.
10. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2008
11. Каримов Б.Р. Дialeктика объективного и субъективного в методе восхождения от абстрактного к конкретному. -T.: 1998.
13. Otamurodav S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi. 2008.
14. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik T.: Istiqlol, 2009.
15. Современный философский словарь / Под ред. В.Е.Кемерова. – М.: 2004.
16. Saifnazarov I.S. O'zbyekiston istiqloli va yangi falsafiy ta'limot. T., 2004
17. Tulenov J. Dialektika nazariyasi.-T.: Sharq, 2001

18. Tulenova K, Tulenov J. Falsafa. T.: O'qituvchi. 2007
19. Falsafa T.: Sharq, 1999
20. Falsafa. T.: Sharq, 2005.
21. Falsafa asoslari. T.: Sharq, 2005
22. Falsafa. T.: UFMJ, 2006.
23. Falsafa ensiklopedik lug'at. T.: Sharq, 2011.
25. Shermuxamedova N.A. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. -T.: "Noshir", 2012.
26. Шпенглер О. Закат Европы. Ростов на-Дону. 1998.
27. Yunusov A. Huquq ma'naviyati. – T.: Adolat, 2008.
28. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.:Tafakkur, 2009.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <http://www.philosophy.ru>.
2. <http://www.filosofia.ru>.
3. <http://www.falsafa.dc.uz>.
4. <http://www.phenomen.ru>.
5. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.
6. [http:// www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Qonun nima ? Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?
2. “Qonun” tushunchasini kim birinchi bo’lib tabiat va jamiyat hodisalariga qo’llagan?
3. O‘zaro aloqadorlik va rivojlanish qanday tamoyillarini bilasiz?
4. O‘zgarish va rivojlanishda o‘z- o‘zini inkor etish tamoyilining ahamiyati nimada?
5. Qarama-qarshiliklar birligi nima?
6. Sakrash nima? Sakrashlarning qanday shakllari mavjud?
7. Qarama- qarshilik birligi va kurashini qonunining mohiyati nimada?
8. Miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonunining olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati qanday?
9. Me’yorning miqdor va sifat aloqadorligi masalasidagi o’rni qanday?
10. . Ziddiyat nima? Ziddiyatlarning qanday turlari bor?
11. Nima uchun ziddiyat tushunchasi dialektikada bosh tushuncha hisoblanadi?
12. Inkorni inkor qonunining mohiyati nimada?
13. Inkorni inkor jarayonida vorisiylikning vorisiylikning o’rni qanday?
14. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, uning olamni anglashdagi ahamiyati qanday ?
15. “Qonunlarning amal qilish shart-sharoiti” deganda nima tushuniladi?
16. Fasafiy(dialektik) qonunlarning ob’yektivligi nima?
17. Falsafiy qonunlarni bilishning ilmiy bilish va amaliyotdagi ahamiyati nimada ?
18. “Jamiyatda yuz berayotgan barcha ijtimoiy jarayonlar ma’lum bir qonuniyatlar asosida sodir bo’ladi, shuning uchun ham insoniyat doimo taraqqiyot sari talpinadi”- degan g’oya kimtomonidan ilgari surilgan?

MUSTAQIL ISHLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qonunlarni bilishning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntiring.
2. Qonunlarning turlari: Voqelik qonunlari, fan qonunlari, falsafiy qonunlarga misollar keltiring.
3. Tabiat, jamiyat va falsafiy qonunlar, ularning o'rtasidagi farqlarni izohlab bering?
4. "Qarama- qarshilik" tushunchasini izohlang.
5. "Ayniyat" va "tafovut" tushunchalarini misollar bilan tushuntiring.
6. Tabiat va jamiyat hayotidan ziddiyatlarga misollar keltiring
7. Qarama- qarshilik birligi va kurashini qonunining mohiyatini atrofimizda hodisalar orqali tushuntirib bering.
8. Miqdor va sifat aloqadorligi masalasini misollar bilan izohlang?
9. Inkorni inkor qonunini mustaqil O'zbekistonimizning taraqqiyoti misolida tushuntiring ?
10. Me'yor va sakrashlarning mohiyatini tushuntiring?
11. Qo'sh inkorning mohiyatini tushuntiring?
12. Inkorni inkor qonuni talablariga muvofiq fikr yuritishning ahamiyati nimada?
13. Faylasuf J. To'lenovning "qonun ko'p qirrali aloqalar va munosabatlarning yig'indisi bo'lib, ob'yektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqarorligini ifodalaydi" degan fikrini misollar bilan tushuntiring.
14. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'lini falsafiy qonunlardan kelib chiqib izohlab bering.
15. Taraqqiyotning evolyutsion va revolyutsion yo'llarini miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni orqali tushuntirib bering.

O'ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH TO'G'RIDAGI QARASHLAR TARIXI

Harakat, taraqqiyot, umumiy bog'lanish va aloqadorlik to'g'risidagi falsafiy qarashlar ham falsafa fani bilan birga paydo bo'lgan.

Lekin, dunyodagi barcha o'zgarish, aloqadorlik va rivojlanishlarni falsafiy jihatdan tushunib yetish juda qiyinlik bilan kechdi. Chunki, insoniyat taraqqiyotining juda uzoq davrlarigacha kishilar kosmosni, o'simliklar, hayvonot dunyosini, hatto kishilarning o'zlarini ham o'zgarmas, doimo bir xilda turadi, deb bilishgan. Dunyoning o'zgaruvchanligi, undagi narsa va hodisalarning bir-birlariga bog'likligi to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi insoniyatning dunyoni bilishi jarayonidagi juda katta kashfiyoti bo'lgan.

Dunyoning o'zgaruvchanligi to'g'risidagi dastlabki fikrlar qadimgi Xitoy, Hindiston hamda Yunonistonning falsafiy ta'limotlarida ilgari suriladi. Qadimgi davr faylasuflari, garchi hali harakatning turli kurinishlari va xillari to'g'risida ilmiy dalillarga ega bo'lishmasa ham, borliqning umumiy o'zgaruvchi xarakteri haqida o'z davrlari uchun yangi fikrlarni ilgari surishadi.

Kishilar dastlabki vaqtlardan boshlab o'z tajribalarida narsa, hodisalardagi o'zgaruvchan xususiyatlar bilan birga, ularda ma'lum barqaror, o'zgarmas xususiyatlarning ham mavjudligini anglay boshlaganlar. Nihoyat, *dunyo o'zgaruvchanmi, yoki o'zgarmasmi?* degan savollar paydo bo'lib, bu savollarga mutafakkirlar turli xil javob berganlar. Qadimgi mutafakkirlar ziddiyatlilik va o'zgaruvchanlik fikr-mulohazalardagina emas, balki real borliqda ham mavjud ekanligini payqaganlar. Bu faktning tagiga yetgan ilk mutafakkirlardan biri efeslik *Geraklit* bo'lgan. U dunyoni «jonli olov» yoki «ikki marta kirish» mumkin bo'lmagan daryo oqimi sifatida tasavvur qilgan. Harakatchan dunyoda zamon o'tishi bilan hamma narsa o'zining dastlabki shakl-shamoyilini yo'qotadi va asta-sekin o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: ho'l narsa quriydi, quruq narsa esa nam tortadi; bir narsa boshqa narsaga: sovuq issiqqa, tirik o'likka o'tadi. Bu mulohazalarda hozirgi talqindagi dialektikaning asoslari mujassamlashgan. Shu sababli qadimgi faylasuflarning stixiyali dialektikasini dialektikaning tarixan birinchi shakli deb hisoblanadi. Amaliyot bergan kupdan-ko'p ma'lumotlarga va o'z kundalik tajribalariga tayangan ko'pchilik mutafakkirlar dunyo o'zgaruvchan, deyishsa, bunga qarama-qarshi bo'lgan, dunyo o'zgarmas, barqaror, deyuvchi mutafakkirlar ham o'zlarining muayyan asoslariga ega bo'lishgan. Natijada, dunyoning, undagi narsa va hodisalarning ham o'zgaruvchan, ham barqaror o'zgarmas xossalari haqidagi qarashlar kelib chiqadi. Haqiqatan ham, narsa va hodisalar ma'lum vaqt ichidahar qancha

o'zgarsa ham, ayni vaqtda ularning ma'lum tomonlari o'zgarmay qolaveradi. Xullas, bunday qarashlar to'plana borib, narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari, ular o'rtasidagi zidsiyatlar haqidagi qarashlar tufayli falsafaning rivojlanish masalasi kelib chiqadi.

Rivojlanish g'oyasi inson ongida uzoq asrlar davomida shakllanib boradi. Dastlab kishilar rivojlanish to'g'risida hech bir tasavvurga ega bo'lmagan. Lekin keyinchalik ular dunyodagi narsa va hodisalarda yuz beradigan turli xil o'zgarishlarni anglay borib, dunyoning uzluksiz harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekanligini tushuna boshlagailar. Ular, shu bilan birga, tabiat va jamiyat voqea-hodisalarida juda ko'p davriy, takrorlanuvchi hodisalarni ham bilib borganlar. Masalan, yil fasllari, kun bilan tunning o'rin almashishi va shular kabi. Lekin dastlabki davrlarda mutafakkirlar rivojlanishni butunlay yangi narsaning, yangi bosqichning paydo bo'lishi, deb tushunish darajasiga ko'tarila olmaganlar.

Rivojlanishni butunlay yangi sifat o'zgarishi, eskiga nisbatan jiddiy yangining paydo bo'lishi, deb tushunishda uyg'onish davri Sharq va O'rta Osiyo mutafakkirlari, keyinchalik esa o'rta asr xristian, diniy va tarix falsafasi mutafakkirlari bir qadar oddinga ketadilar. Ularning qarashlarida rivojlanish g'oyasini insoniyat jamiyati tarixiga tatbiq etishga urinishlarni uchratamiz.

Rivojlanish g'oyasini bir butun dunyo rivojlanish bilan bog'lab tushunishda muhim qadamni birinchi bo'lib fransuz faylasufi *Rene Dekart* qo'yadi. U, dunyoni xudo yaratayotib, unga dastlabki turtkini kiritgan va uni harakatga keltirgan, deydi. XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari Volter va Russo inqilobiy qaytaqurishni o'z ichiga olgan tarixiy rivojlanish g'oyasini ilgari surishadi. Ularning izdoshi *Kondorse* esa o'zining jamiyatning ilgarilama harakati, uzluksiz ta'raqqiyot to'g'risidagi ta'limotini yaratadi. Bu mutafakkirlar o'z qarashlarida g'oyaviy omillar (masalan: axloq, din, huquq va shu kabilar) jamiyatni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy kuchlardir, degan g'oyani ilgari suradilar.

Nihoyat, rivojlanish to'g'risidagi har xil qarashlarning sintezi sifatida bir butun taraqqiyot nazariyasi faqat nemis klassik falsafasidagina paydo bo'ldi. Bu falsafaning asoschilaridan biri *I. Kant* rivojlanish g'oyasini quyosh sistemasi va barcha yulduzlar dunyosini izoxlashga tadbiq etib, uni hatto insonning ijtimoiy rivojlanishiga, xususan, insonning axloqiy rivojlanishiga ham joriy etishga urinadi. Kantning shogirdi Gerder esa rivojlanish g'oyasini butun xalqlarning tarixiy taraqqiyotiga va insoniyat madaniyati taraqqiyotiga birinchi bo'lib tadbiq

etadi. Bu davrga kelganda, dialektika tushunchasi endi rivojlanish g'oyasini ifodalay boshlaydi.

Dialektikani rivojlanish haqidagi har taraflama, mazmun jihatdan boy va chuqur ta'limot sifatida birinchi marta nemis klassik falsafasining buyuk vakili *Gegel* ishlab chiqdi. *Gegel*ning ulug' xizmati shu bo'ldiki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko'rsatdi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bog'lanishini ochib berishga urindi.

Hozirgi davrga kelib shu narsa o'z isbotini topdiki, olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi. Narsa, hodisa va voqealar o'rtasidagi ichki bog'liqlik, aloqa-dorlik va bir-biriga ta'sir qilishlik ob'ektiv qonuniy holdir. Ana shu qonuniyatni ochib berish – fanning, xususan falsafa fanining vazifasidir.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh, qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytilish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin

o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s'ezd, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlariga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo'lidan bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi shunday savol: **Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?** Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h. k.) sotib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qo'yishadi va h. k. Nima uchun? Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni ob'ektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo'ymaysiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin: *Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir.* Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi,

o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

- qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi.

- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2014 yili qishdan keyin bahor kelib, 2015 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni — fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi. Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati — u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar ob'ektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'lolmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o'rtasida o'xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo'lmasa, vazni o'xshash bo'lishi mumkin va h.k.

Ma'lumki, hodisalarni tavsiflashdan ularning mohiyatini anglab etishga o'tish hodisalarda umumiy jihatlarni topishni talab etadi.. Bunda vazifa turli hodisalar o'rtasida umumiy jihatlarni topishdangina iborat emas. Hodisalarni birlashtiruvchi va ularning birligini belgilovchi asosni tushunib etish zarur. Bu asos — hodisalarni «biriktiruvchi» va ularni bir-biriga yo'ldosh bo'lish, uyg'unlashish va muvofiqlashishga majbur qiluvchi amalda mavjud bo'lgan barqaror aloqani aks ettiruvchi tushuncha qonundir.

Qonunlarni bilishga hodisalarni ilmiy o'rganish natijasida erishiladi. Odatda, bu olimlarning tafakkurdan uzoq zahmat chekishni talab etuvchi juda og'ir ishdur. Voqelikning biron-bir qonunini aniqlash uchun olim o'rganilayotgan hodisalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarning ko'p sonli to'plamlariga tayanishiga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar shunday tartibga solinishi va umumlashtirilishi lozimki, hodisalarning mazkur sohasi asosiy elementlar va munosabatlarni farqlash imkonini beradigan tizim sifatida namoyon bo'lsin. Shunday so'ng elementlarning rang-barang munosabatlari orasida tizimning va tizim ayrim elementlarining har qanday o'zgarishlarida saqlanib qoluvchi umumiy, o'zgarmas, invariant aloqalarni aniqlash talab etiladi. Qonunlarni uch guruhga ajratish mumkin:

Voqelik qonunlari ;

Fan qonunlari;

Falsafa qonunlari;

Voqelik qonunlari bizning ongimizdan, biz ularni bilish-bilmasligimizdan qat'iy nazar mavjud va amal qiladi.

Fan qonunlari odamlar tomonidan anglab etilgan voqelik qonunlarining ongimizdagi in'ikosi hisoblanadi.

Falsafa qonunlari tabiat va jamiyatda insonning ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi qonunlardir. Shunengdek, qonunlarni amal qilish doirasiga qarab:

Eng umumiy,

Umumiy va

Xususiy qonunlarga bo'lish mumkin. Xususiy qonunlar muayyan bir ob'yektning o'ziga xos xususiyatlari o'rtasidagi yoki materiya harakatining biron-bir shakli doirasida mavjud bo'lgan ichki aloqadorliklar ifodasidir. Umumiy qonunlar narsa va xodisalarning katta majmualari o'rtasidagi aloqadorliklarni anglatadi. Eng umumiy qonunlar esa tabiat, jamiyat va tafakkurdagi barcha aloqadorliklar, o'zgarishlar va taraqqiyot murvat(mexanizm)larini anglash, voqealar rivojining pirovard oqibatlarini oldindan faxmlab olish imkonini beradi. Bularga falsafa fanining qonunlari kiradi.

Har bir fan voqelikning muayyan sohasini o'z predmeti sifatida o'rganar ekan, mazkur sohada amal qiluvchi qonunlarni aniqlaydi. Ilmiy nazariya bilan qamrab olingan soha qancha keng bo'lsa, uning qonunlari shuncha umumiy bo'ladi. Fanda qonunlarning umumiylik darajasiga ko'ra murakkab ierarxiyasi

mavjud. Umumiylik darajasi pastroq bo'lgan qonunlar umumiyroq qonunlarning ayrim ko'rinishlari sifatida amal qiladi va so'nggi zikr etilgan qonunlardan ularning oqibatlarini sifatida keltirib chiqariladi.

Masalan, geometrik optikada yorug'likning aks etish va sinish qonunlari elektromagnit to'lqinlar tarqalishining umumiyroq qonunlaridan, ular esa, o'z navbatida, elektromagnit maydoni nazariyasining yanada umumiyroq qonunlaridan kelib chiqadi.

Har qanday qonun muayyan sharoitda amal qiladi. Qonun amal qilishining bazis va lokal sharoitlarini farqlash lozim. *Bazis sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasini belgilovchi sharoitlar kiradi.* Mazkur sharoitlardan tashqarida qonun amal qila olmaydi (ular yo'q bo'lgan taqdirda ularda amal qilayotgan tizim ham yo'q bo'ladi). *Lokal sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasidagi sharoitlar kiradi.* qonun bu sharoitlarning har qanday variatsiyasida o'z kuchini saqlab qoladi, lekin ularning o'zgarishlari qonunning amal qilish natijalarining o'zgarishlariga sabab bo'ladi. Qonun lokal sharoitlarga nisbatan invariant, lekin u bazis sharoitlarga nisbatan invariant emas.

Masalan, Arximed qonuni uchun suyuqlik va unga solingan jismning, og'irlik kuchining mavjudligi bazis sharoitlar hisoblanadi. Bu sharoitlarga nisbatan Arximed qonuni noinvariantdir: ular mavjud bo'lmasa, qonun amal qilmaydi. Bu erda suyuqlikning tarkibi va solishtirma og'irligi, jismning fizik tuzilishi va shakli lokal sharoitlar hisoblanadi. Ularga nisbatan qonun invariantdir. Ammo uning amal qilishi turli natijalarda aks etishi mumkin: ayrim hollarda jism suvda suzadi, ayrim hollarda esa – u cho'kib ketadi.

Odamlar qonunlarning amal qilish sharoitlarini o'zgartirib, ulardan o'zlari istagan natijalarga erishish uchun foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Yangi bazis sharoitlarni yaratish yo'li bilan esa ular ayrim qonunlarning amal qilishini to'xtatish va boshqa qonunlarni amalga kiritishga qodirlar.

Hodisalarning muntazamligi, takroriyligida qonunlarning amal qilishi (shuningdek fenomenlogik qonun, empirik bog'lanish) qonuniyat-deb ataladi. Qonuniyatlar – bu qonunlarning namoyon bo'lishidir.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Er, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Chunki tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar, ularning inson miyasidagi in'ikoslari — bizning tasavvur va tushunchalarimiz o'zaro bog'liq va aloqador, bir-biriga ta'sirva aks ta'sir etib

turishi ularning doimiy ravishda harakatda, o'zgarish va rivojlanishda bo'lishini taqozo etadi, ularning yangilari paydo bo'lib, eskilariyo'q bo'lib turadi. Narsa va hodisalarning harakati, o'zgarish va rivojlanishlari ularning o'zaro aloqa dorligi va bog'lanishlari asosida sodir bo'ladi. Bizni qurshab turgan barcha narsa va hodisalar: galaktikalardan tortib yulduzlargacha, yulduzlardan tortib Yer va Quyoshgacha, Yerning o'zidan tortib, undagi turli tuman moddalar, o'simliklar va hayvonot dunyosigacha, kishilik jamiyatidan tortib to inson va uning ta fakkurigacha hamma-hammasi doimo harakat, o'zgarishva rivojlanishdadir. Bir butun borliqda sodir bo'ladigan harakat, o'zgarish va rivojlanish umumiy xarakterga egadir. Biz «Borliq» mavzusini o'rgangani mizda, harakat borliqning umumiy yashash usuli, uning ajralmas xossasi ekanligi bilan tanishganedik. Kundalik hayotda «harakat» deganda, odatda, narsa va hodisalarning oddiy o'rin almashuvi tushiniladi. Dialektikada esa harakatni chuqurroq tushiniladi. Bunday «o'zgarish» tushunchasi hajm jihatdan «harakat» tushunchasiga kiradi. Chunki har qanday o'zgarish harakatdir, lekin har qanday harakat o'zgarishemasdir. O'zgarish narsa va hodisalarning bir holat dan ikkinchi holatga, bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishidir. Masalan, yangi buyumning eskirishiva shular kabi. Biroq «o'zgarish» o'z ichiga «rivojlanishni» oladi, garchi har qanday o'zgarish rivojlanish bo'lmasa ham.

Rivojlanish. Rivojlanish esa bu - progress¹ tomon o'zgarishdir. Rivojlanish, aslida shunday o'zgarishki, bundamuayyan yo'nalishdagi yangi holat eski holatning, yuqori bosqich quyi bosqichning o'rnini olib, eskinarsa va hodisalar yo'qolib, ular o'rnini yangi narsa va hodisalar oladi. O'zgarish esa rivojlanishdandshu bilan farq qiladiki, u o'z ichiga regresslarniham oladi.

Rivojlanish — bu progressdan iborat o'zgarish bo'lib, keng ma'noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakabga qarab ilgarilab boruvchi harakatdir. Rivojlanish shunday o'zgarishki, u narsa va hodisalarning quyi bosqichi o'rnini yuqoriroq bosqich olishidir. Rivojlanish boshqa jihatdan narsa va hodisalarning miqdor va sifat jihatdan tubdan o'zgarib, boshqa narsa va hodisalarga aylanishidir. Rivojlanish, umumanv olganda, to'g'ri chiziq bo'ylab harakat emas, uni bunday tushunish xatodir. Bunday tushunishni tabiat rivojlanishi ham, jamiyat tarixi ham rad etadi. Har qanday real rivojlanish spiralsimon holda, uning har bir yangi o'rami oldingisiga qaraganda kengroq, boyroq, mazmunliroq, yuqoriroq asosda egri-bugri yo'llar bilan sodir bo'ladi.

¹**Progress** (lotinchi "proyogisiya" so'zidan olingan bo'lib, yangining rivoji, oldinga tomon harakat, rivojlanishda quyi bosqichdan yuqori bosqichga utish, degani) — ilgarilab boradigan taraqqiyot.

Fan va ijtimoiy-tarixiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuriga xos bo'lgan asosiy umumiy xususiyatlardan biri — bu ularda progress tomon rivojlanishning, ya'ni taraqqiyot ning mavjudligidir.

Noorganik tabiatda rivojlanish moddiy ob'ekt larning, ulardagi o'zaro aloqadorlik va harakat turlarining tobora murakkablashib borishi tarzida namoyonbo'ladi.

Organik tabiatda esa rivojlanish tirik organizmlarning tashqi muhitga moslashuvi asosida, ulardagi tabiiy va sun'iy tanlanish jarayonida eski, sodda turlarning o'rniga yangi, murakkabroq turlarning paydo bo'lib, ularning takomillashib bori shida ifodalanadi.

Insonning rivojlanishi deyilganda esa, odamning tobora ijtimoiylasha borib, mehnat, til, ong va axloqning ta'siri tufayli ijtimoiy zot — insonga aylana borishi, nihoyat, ibtidoiy jamoa tuzumi kishisidan to hozirgi davr kishisigacha bosib o'tilgan bosqichlar tushiniladi.

Progress tomon rivojlanish, ayniqsa, jamiyathayotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamiyatdagi rivojlanish bir quyi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan *Regress* (lotincha "gegresh — so'zidan olingan bulib, orqaga tomon harakat, qaytish degani) — salbiy tomon o'zgarish, ortga qaytish, yuqoridan quyi tomon borishga nisbatan progressivroq, yuqoriroq ijtimoiy iqtisodiy bosqichlarga o'tib borish asosida ro'y beradi.

Inson tafakkuri jarayoniga xos rivojlanish esa, bu inson bilishining bilmaslikdan bilishga tomon, to'la bo'lmagan bilimlardan to'laroq bilimlarga tomon, oddiy bilishdan ilmiy bilishga tomon yuksalib borishidir.

Biz ko'rib o'tgan sohalarning har birida progress tomon rivojlanish o'ziga xos shakllarda yuz beradi. Shu bilan birga, ularning hammasiga xos rivojlanishning umumiy tomonlari ham bo'lib, ular birlikdabir butun dunyoning umumiy rivojlanish manzarasini fodalaydi.

Umuman, biz rivojlanish atamasini juda ko'p ishlatamiz, u bizga tushunarlidek, tuyuladi. Aslida esa, bu tushuncha ifodalagan jarayon, biz o'ylagandek, unchalik sodda emas. «Rivojlanish» tushunchasi ko'p hollarda olg'a qarab borishning sinonimi sifatida «progress» tushunchasiga tenglashtiriladi. Bugungi kunda insoniyat jamiyatining rivojlanishi, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar rivojlanishning murakkab jarayon ekanligidan dalolat bermoqda.

Unda muayyan davriy o'zgarish bilan bir qatorda, progressga tomon takrorlanmas o'zgarishlar, turli xil zigzaglar mujassamligi ham ma'lum bo'lmoqda. Ayniqsa, keyingi paytlarda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar

tahlikali tendensiyalar, halokatlar xavfi bo'lgan jarayonlarni ham o'z ichiga olishligi ravshan bo'lmoqda. Bu jarayonlarni to'g'ri tushunib olish vaularga to'g'ri yondoshib, to'g'ri xulosalar chiqarish uchun bizga yangicha fikrlash juda zarur bo'lmoqda. Masalan, bizning shu paytgacha o'ylamasdan tabiat boyliklarian talon-tarojlik bilan foydalanib kelishimiz natijasida bugungi kunda tabiat o'z boshidan umumiy tanazzo'l (tanglik)ni kechirishi xavfi paydo bo'ldi. Shuning uchun tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hozirgi jarayonlarning tahlili rivojlanishning falsafiy tushunchasini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bunga sabab rivojlanish jarayonida turli xil o'zga rishlarning ziddiyatli xarakterlari namoyon bo'layot ganligidir. Rivojlanish jarayoni shu bilan birga, o'ztabiatiga ko'ra turlicha yo'nalishdagi, bir-biriga qarama-qarshi va ayni vaqtda bir-biridan ajralmas tendensiyali tomonlarga ham ega. Bu tendensiyalar differensiatsiya va integratsiya jarayonlarining birligidan iboratdir.

Shuni aytish kerakki, rivojlanishning turli tomonlari, bosqichlari, uning konkret xususiyatlariturli konkret fanlar tomonidan o'rganilib, ularninghar biri o'zining sohasiga oid alohida rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqadi va mukammallashtirib boradi. Masalan, hozirgi zamon kosmologiyasi koinot, ayrim galaktikalar, turlicha kosmik ob'ektlarning kelib chiqishi kabi nazariyalarni ishlab chiqmokda. Evolyusion biologiya esa tirik organizmlarning rivojlanishi, ularda sodda turlardan murakkabturlarning qanday kelib chiqishi haqida o'z nazariyalariga ega. Tarix fanida esa kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari haqida turli nazariyalar mavjud; tilshunoslik fani bo'lsa turli tillarning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi nazariyalarni ishlab chiqqandir. Bular rivojlanishning turli konkret maxsus sohalariga oid nazariyalardir.

Rivojlanishning turli maxsus fanlar sohalariga oid bunday nazariyalarining umumiy jihatlari Rivojlanish falsafasida ifodalanadi. Rivojlanish falsafasi esa bir butun borliqning harakati, o'zgarishi va rivojlanish qonunlari va prinsiplarini o'z ichiga olgan umumfalsafiy ta'limotdir.

O'zaro aloqadorlik va rivojlanish tamoyillari. Har qanday konsepsiyaning mazmunini yoritishda uning tamoyillarini tahlil qilish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanish falsafasi ham bundan mustasno emas. Tamoyillar nima?

Falsafiy ma'noda «tamoyil»(prinsip) tushunchasi fundamental qoida, birinchi asosni, biron-bir konsepsiya yoki nazariyaning eng muhim asosini anglatadi. Falsafiy nazariya sifatidagi Rivojlanish falsafasiga tamoyillar yaxlit tus beradi, uning qonunlari va kategoriyalarini izchil tizimga soladi. Rivojlanish falsafasining hozirgi konsepsiyalarida umumiy aloqadorlik va rivojlanish,

tarixiylik, sababiylik, tizimlilik kabi tamoyillar muhim rol o'ynaydi. Quyida bu tamoyilla bilan tanishamiz.

Umumiy aloqadorlik tamoyili. Dunyo o'ta rang-barang. Har bir ob'ekt ko'p sonli xossalarga ega bo'lib, ular boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqa jarayonida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday tuzilma boshqa tuzilmalar bilan aloqaga kirishish orqali namoyon bo'ladi. SHunday qilib, har bir ob'ekt o'zga ob'ektlar bilan qonuniy bog'lanadi va bu ob'ektlar bilan o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida ishtirok etadi.

Aloqa. *Falsafada aloqa deganda makon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yoki ob'ektning o'zaro aloqa jarayoni tushuniladi.* Ob'ektlar diskretlik, shakllanganlik va nisbatan mustaqillikdan mahrum bo'lgan joyda aloqalar mavjud bo'lishi mumkinmi? O'z-o'zidan ravshanki, shakllangan, nisbatan mustaqil narsalar mavjud bo'lmagan joyda aloqa mavjudligini taxmin qilish ham mumkin emas. Shu sababli umumiy aloqa kategoriyasi «narsa», «uzluklilik», «uzluksizlik», «cheksizlik», «tuganmaslik» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Hozirgi ilmiy bilimga tayanuvchi borliqning falsafiy talqini olamning universal yaxlitligini, dunyoning birligini ochib beradi. *Dialektika kategoriyalari borliqning universal aloqalarini bilish shakli hisoblanadi.*

Aloqalarning universalligi ularning tiplari va turlarining rang-barangligida namoyon bo'ladi. Aloqalarni tasniflash turli asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. *Xususan, bir tomonlama va o'zaro aloqalar, to'g'ri va egri aloqalar, bevosita va bilvosita aloqalar, ichki va tashqi aloqalar farqlanadi.* Hajm jihatidan aloqalar umumiy, alohida va xususiy bo'lishi mumkin. *Mazmun jihatidan genetik, funksional, strukturaviy, energetik, moddiy, informatsion* va boshqa aloqalar farqlanadi. Aloqalarning butun rang-barangligi fanning qaysidir bir tarmog'i doirasida tadqiq etilishi mumkin emas. Ularning muayyan turlari maxsus fanlarning predmeti hisoblanadi. Rivojlanish falsafasi borliqning barcha jarayonlariga xos bo'lgan umumiy, muhim, universal aloqalarni o'rganadi. Fan borliqning universal qonunlarini tashkil etadigan *ichki, zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanuvchi* aloqalarga alohida e'tibor beradi. Umumiy aloqalar Rivojlanish falsafasi kategoriyalarida yoritiladi.

O'zaro aloqa. Real voqelikda har bir muayyan ob'ekt ko'p sonli sababiy zanjirlarning murakkab «tuguni» hisoblanadi. U boshqa ob'ektlardan ta'sirlanish bilan bir vaqtda o'zi ham ularga aks (reaktiv) ta'sir ko'rsatadi. «Tashqi» va «ichki» sababiy zanjirlar unda uyg'unlashadi, kesishadi va tarmoqlanadi. Ular

bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va bu o'zaro aloqa ob'ektda yuz beruvchi barcha jarayonlarning negiziga aylanadi.

Ob'ektni bilish uchun pirovard natijada unda vujudga kelgan sababiy aloqalar «tuguni»ni echish talab etiladi. Barcha hodisalar mohiyatiga izohni o'zaro aloqadan izlash kerak. U hodisalarning barcha xossalari va xususiyatlarini belgilaydi, amalda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlar, tasodiflar va zaruriyatlarning manbalarini o'zida mujassamlashtiradi. *O'zaro aloqani tushunish – umuman ob'ektni tushunish demakdir.*

Ammo har qanday ob'ekt boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqa qilgani bois, uning barcha o'zaro aloqalarini bilish uchun undan boshqa ob'ektlarni o'rganishga, ulardan – uchinchi ob'ektlarga o'tishga to'g'ri keladi va h.k. Ayrim ob'ektning tabiatini belgilovchi o'zaro aloqani bilish jarayoni cheksizdir. Paskal ta'biri bilan aytganda, to'g'nag'ich kallagini bilish uchun butun Olamni bilish talab etiladi.

Aloqa uchun asos. Aloqa, aloqa uchun asos va aloqa shart-sharoitlari tushunchalarini farqlash lozim. *Aloqa yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi ayrim xossa, belgi yoki munosabat aloqa uchun asos bo'ladi.* Asosning mavjudligi aloqa o'rnatish uchun zarur, lekin etarli emas, chunki uning o'rnatilishi doim emas, balki muayyan sharoitdagina yuz beradi. *Shart-sharoitlar – bu avvalo predmet mavjud bo'lgan muhitdir.* U aloqa o'rnatish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Shart-sharoitlar o'z holicha aloqa o'rnatish omili bo'lishi mumkin emas, ular faqat aloqa yuzaga kelishiga ko'maklashadi yoki monelik qiladi.

Narsalar o'rtasida aloqa biron-bir muayyan asosga ko'ra yuzaga keladi. Umumiy asos ayrim umumiy asosga ega bo'lgan turli ob'ektlar o'rtasida umumiy aloqa yo'lini ham vujudga keltiradi. Masalan, muayyan manfaat guruhlari o'z manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy guruhlariga birlashadilar, mamlakatdagi siyosiy muhitga kuchli ta'sir ko'rsatadilar. Ammo boshqa, masalan, etnik, diniy va boshqa asoslarga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Shunday qilib, mazkur misolda aloqa yo'li aloqa yuzaga kelishi uchun asos, boshqa belgilar – buning shartlaridir. O'zaro aloqa umumiy xususiyat kasb etadi, u butun borliqqa xosdir. Shu sababli aloqa tushunchasi dialektikada eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Boshqa barcha kategoriyalar o'zaro aloqaning muayyan turlari bilan tavsiflanadi.

Munosabat. *Aloqa tushunchasi o'zaro aloqa, harakat, munosabat tushunchalari orqali yoritiladi. «Hozirgi zamon falsafa lug'ati»da¹ munosabat*

¹Qarang: Современный философский словарь / Под ред. В.Е.Кемерова. – М.: 2004. – С.497.

tushunchasi «narsalarning o‘zaro mavjudlik usuli, ularda yashirin xossalarning namoyon bo‘lish omili» sifatida ta’riflangan. Bu ta’rifda munosabatni tavsiflovchi quyidagi jihatlar farqlanadi: birinchidan, narsalarning o‘zaro mavjudligi, yaqinlashuvi, birlashuvi. Ikkinchidan, munosabat narsaning xossalari namoyon etish, ya’ni harakatga keltirish usuli sifatida amal qiladi. Uchinchidan, narsalarning birlashuvi sifatidagi munosabat ta’sirida kooperativ effekt, ya’ni *narsalar holatlarining bir-birini o‘zgartirishi* yuz beradi. Bunda munosabat yuzaga kelgunga qadar yashirin holda mavjud bo‘lgan narsalarning xossalari bir-biriga o‘tadi va namoyon bo‘ladi.

Xullas, munosabat, bir tomondan, narsalarning o‘zaro aloqasini, boshqa tomondan esa – ularning alohida-alohida mavjudligini nazarda tutadi.

O‘zaro ta’sir. Narsalar bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladigan va ular bir-birini o‘zgartirishiga sabab bo‘ladigan aloqa. Ya’ni, *o‘zaro ta’sir narsalarning o‘zaro aloqadorligini, ular bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi va bir-birini o‘zgartirishini anglatadi.* Ammo o‘zgarish – harakat falsafiy tushunchasining sinonimidir. Binobarin, umumiy aloqaning tan olinishi bizni muqarrar tarzda borliqning o‘zgaruvchanligi umumiy xususiyatini tan olishga olib keladi. Umuman o‘zgarish sifatida tushuniladigan harakat butun olamni qamrab oladi, dunyoda hamma narsa muayyan paytda vujudga keladi, tadrijiy rivojlanadi, o‘zgaradi va g‘oyib bo‘ladi (o‘ladi, halok bo‘ladi, barham topadi). Demak, har qanday hodisa o‘z tarixiga ega. Ayni shu sababli tabiat va jamiyat hodisalarini o‘rganishga nisbatan tarixiy yondashuv zarur.

O‘zgarishlar o‘z xususiyati va yo‘nalishiga ko‘ra tartibsiz o‘zgarishlar, aylanma harakatlar, jismlarning makonda bir joydan boshqa joyga mexanik ko‘chishida namoyon bo‘lishi mumkin. Rivojlanish o‘zgarishning alohida tipi hisoblanadi.

Rivojlanish falsafasi kategoriyalari umumiy aloqalarning o‘zgarish va rivojlanish manbai sifatidagi tavsifini to‘ldiradi, harakatlanayotgan, tadrijiy rivojlanayotgan dunyoning keng manzarasini yaratish imkonini beradi. Biron-bir aloqalar va o‘zaro ta’sirlarsiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ob’ektlar amalda mavjud emas. Rivojlanish falsafasining muhim belgilaridan biri va umumiy aloqa tamoyilining mazmuni aynan ob’ektlarning har tomonlama o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’sirlarini hisobga olishdan iborat.

Shunday qilib, Rivojlanish falsafasi moddiy dunyoda hukm suruvchi umumiy aloqani aniqlashni talab qiladi.

Aloqalar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, ular ob'ektiv xususiyat kasb etadi, ya'ni odamlar ongidan qat'iy nazar, ob'ektiv qonuniyat sifatida mavjud bo'ladi.

Ikkinchidan, aloqalar universaldir, chunki hamma joyda va har doim, barcha hodisalarda, barcha darajalar va bosqichlarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, o'zaro aloqa o'zining mohiyati va tabiatiga ko'ra serqirradir, zero har bir predmet, har qanday hodisa boshqa hodisalar bilan minglab rishtalar vositasida bog'lanadi va bu aloqa moddiy va ma'naviy dunyo hodisalari va jarayonlari o'rtasidagi munosabatlarning oxiri ko'rinmaydigan tarmog'i bilan tavsiflanadi.

To'rtinchidan, real aloqalar o'z xususiyati, chuqurlik va murakkablik darajasi, namoyon bo'lish shakllariga ko'ra cheksiz darajada rang-barangdir. Rivojlanish falsafasi borliqning rang-barang aloqalarini tahlil qilishga nisbatan differentsiatsiyalashgan yondashuvni nazarda tutadi. Bunda u quyidagi aloqalarni farqlaydi:

- materiyaning asosiy turlariga va uning harakat shakllariga xos bo'lgan aloqalar (mexanik, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy bog'lanishlar);

- materiya mavjudligining asosiy shakllariga xos bo'lgan aloqalar (makonga doir, vaqtga doir, strukturaviy, genetik, sababiy, funksional bog'lanishlar).

Ammo aloqalarning ko'p sonli konkret shakllari orasida Rivojlanish falsafasini borliqning barcha hodisalari va jarayonlarida namoyon bo'luvchi o'ziga xos aloqalar (bog'lanishlar xususiyati) qiziqtiradi. *Aloqalarning bunday shakllari qatoriga ichki va tashqi aloqalar; muhim va ahamiyatsiz bog'lanishlar; zaruriy va tasodifiy bog'lanishlar; barqaror va beqaror aloqalar; umumiy va yakka aloqalar kiradi.*

Rivojlanishda bu aloqalarning roli bir xil emas: ularning ayrimlari yordamida predmet o'z tabiatini ro'yobga chiqaradi, ya'ni ular bosh rol ni o'ynaydi, boshqa aloqalar esa ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. SHunga muvofiq «qonun aloqa demak» degan ibora paydo bo'lgan. Bu to'g'rimi? To'g'ri, agar qonun – bu har qanaqangi aloqa emas, deb qo'shimcha qilinsa. Qanday aloqa qonun hisoblanadi? Qonun deb, bir qancha zaruriy belgilarga ega bo'lgan o'zaro bog'lanishga aytiladi.

- **Aloqaning ob'ektivligi.** Bu erda gap bugun qabul qilinib, ertaga bekor qilinadigan yuridik qonunlar haqida borayotgani yo'q. Energiya va moddaning saqlanish qonunlari yoki butun olam tortishish qonuni haqida gapiradigan bo'lsak, biz ularni bekor qilishimiz yoki ularning amal qilishini ongli ravishda

to'xtatishimiz mumkin, deb aytish aqlga sig'maydi.. Demak, qonunning muhim belgisi narsalarning ob'ektiv holatini, narsalar va hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv aloqani aks ettirishida namoyon bo'ladi.

- **Aloqaning muhimligi.** Muhim aloqa – bu narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi bog'lanish. Aytaylik, elementlarning davriy qonuni atom og'irligi, atom o'zagining zaryadi va elementlarning kimyoviy xossalari o'rtasidagi muhim aloqani aks ettiradi;

- **Aloqaning zaruriyligi.** Zaruriy aloqa – bu muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo'luvchi bog'lanish. Masalan, fizikada ma'lum bo'lgan o'tkazgich qarshiligining o'tkazgich tarkibi, uning uzunligi va ko'ndalang kesimining yuziga bog'liqligi qonuni o'tkazgichda elektr toki o'tgan har bir holda zaruriy tarzda namoyon bo'ladi, chunki u o'tkazgich qaysi moddadan yasalgan bo'lsa, shu moddaning tabiati, unga xos bo'lgan ob'ektiv xususiyatlar bilan belgilanadi;

- **Aloqaning barqarorligi.** Barqaror aloqa – bu ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa. U materiya harakatining tegishli shakli (materiya rivojlanishining muayyan bosqichi) yoki tafakkur mavjud bo'lgan davr mobaynida, toki bu narsalar va hodisalar mavjud ekan, amalda mavjud bo'ladi;

- **Aloqaning umumiyli.** Aloqaning umumiyli shunda namoyon bo'ladi, unga ob'ektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo'ysunadi.

Tarixiylik tamoyili. Har qanday, narsa, jarayon mavjudligi paydo bo'lish, rivojlanish va yo'qolish bosqichlarida namoyon bo'ladi. Masalan Er taxminan 6 milliard yil ilgari issiq gazsimon tumanlikdan paydo bo'lib, hozirgi holatiga etgan. Ayni paytda olimlar qachonlardir Erning sovib, oysimon, sovuq planetaga aylanishini e'tirof etganlar.

Materialistlar tarixiylik tamoyilini “olamning moddiy birligi haqidagi monistik tamoyilga” mosligi uchun reallikning barcha sohalarida mavjud deb hisoblaydilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarixiylikni mutloqlashtirish to'g'ri emas. Chunki, ilgari Oy oddiy planeta bo'lgan, hozir esa sovuq kosmik jism, qutb yulduzining konfiguratsiyasi 50 ming yil ilgari hozirgidan boshqacha bo'lgan, insonning jismoniy tipi 40-50 ming yil ilgari to'liq shakllangan. Bunda tarixiylik to'liq namoyon bo'layotgandek. Biroq, aslida, tabiat, materiya abadiy, biz Uning faqat muayyan fragmentlarini, tabiat fragmentlarining tarixini qo'ramiz xolos. Shuning uchun tarixiylik tamoyili haqida emas, balki evolyusiya tamoyili haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi.

Tarixiylik tamoyilining shakllari turlicha. Tarixiylikning ijtimoiy jihatida ijtimoiy tarixning qonuniyatligi, uning taraqqiyoti qaytarilmas ekanligidan dalolatdir. Yangi ijtimoiy tuzilma va tizimlarning paydo bo'lishi muqarrar. Ijtimoiy hayotni o'rganishda tarixiylik tamoyili g'oyasi Ibn Xaldun, ar-Roziy, Hegel, Shmoller ijodida aks etgan. Metodologik jihatdan tarixiylik tamoyili jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichidagi yaxlitlikni, rivojlanishning istiqbollarini baholash imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirdi. Bu ta'lim tizimining ilgarigi holatidan butunlay yangi holatga o'tishini ta'minladi. Mulk sohasidagi islohotlar esa kishilarning mulkka ongli munosabatini shakllantirishga zamin tayyorladi. Jamiyatning tarixiy rivojlanishida va tarixiylik tamoyilining amal qilishida tarixiy taraqqiyotni bilish yoki bilmaslik muhim ahamiyat kasb qiladi. Zero, bilish orqali yangi jamiyatning nazariy asoslari yaratiladi, bilmaslik esa ko'r ko'rona faoliyat natijasida jamiyatni navbatdagi boshi berk ko'chaga olib kiradi.

Sababiyat tamoyili. *Sababiyat aloqalarning genetik tipi, zero unda bir hodisa muqarrar yangi bir hodisani yaratadi.* Yangi sifatning paydo bo'lishi sababga ega. Masalan, O'zbekistonda mudofaa sohasidagi islohotlar ilgarigi mudofaa xizmatining hozirgi davr talablariga javob bermasligi davlat manfaatlariga mos emasligi bilan belgilanadi.

Tizimlilik tamoyili. Tizimlilik tamoyili va u bilan bog'liq tizimli yondoshuv o'zida Rivojlanish falsafasining kompleks g'oyalarini mujassamlashtirgan hozirgi zamon fani va amaliyotida muhim metodologik ahamiyat kasb qiladi. Tizimlilik tamoyilining asosiy omili yaxlitlik tamoyilidir. Bu ob'ektlarni ikki yoqlama: bir tomondan ob'ektlarning muhit bilan mutanosibligi, ikkinchi tomondan tizim elementlari, xossalari va funksiyalarining butun doirasida ichki bo'linishi nuqtai nazaridan o'rganishni talab qiladi. Bunda butunning xossalari uning elementlarini nazarda tutadi va aksincha. Tizimning yaxlitligi haqidagi tasavvurlar aloqa orqali konkretlashtiriladi. (Aloqalar haqida yuqorida aniq ma'lumot berilgan)

Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o'tishdagi o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Er qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'aflatda qolib kelmoqdalar. Ya'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin ro'y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu erda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzda takrorlanishdir.

Hech qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o'sha Quyosh chiqadi, o'sha tog'u toshlarni, bog'u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o'sha-o'shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o'qishga, kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi... Ammo dunyo o'zgarmadimi bu bir kunning

ichida? unda minglab bolalar tug‘ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar ro‘y berib, Er sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimi? Ona zamin o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimi? Bularning barchasi bir kunu-tunda ro‘y bergan botiniy va zohiriy o‘zgarishlarning namoyon bo‘lishidir. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o‘zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o‘z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Quyida biz falsafa qonunlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydigan qarama-qarshiliklar birligi va o‘zaro tasiri qonuniga to‘xtalib o‘tamiz. Qonunning muhim jihatlarini aniqlash uchun uning asosiy kategoriyalarini ko‘rib chiqish kerak. Tahlilni qarama-qarshilik tushunchasidan boshlaymiz.

Qarama-qarshiliklar birligi va o‘zaro tasiri qonuni. Qarama-qarshilik – narsalar va hodisalardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, xossalar, tendensiyalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya (assimilyasiya – dissimilyasiya, o‘zgaruvchanlik – tug‘malik, ishlab chiqarish – iste‘mol qilish, yaxshilik – yomonlik va sh.k.). Qarama-qarshiliklar – o‘zaro bog‘lanishli bo‘lgan tushunchalar. Turli jihatlardan olingan taqdirda, ular o‘zaro birlikni tashkil etmaydi va bir-biriga zid bo‘lmasligi mumkin.

Qarama-qarshiliklar o‘rtasida ikki xil munosabat mavjud: yagonalik munosabati va qarshi harakatga doir munosabat. (qonunning klassik ta‘rifida «kurash» atamasi ishlatiladiki, u qonunning mohiyatini soddalashtiradi, chunki mazkur atama ko‘proq jamiyatga tegishlidir.)

Qarama-qarshiliklar birligi nima? *Birinchidan, qarama-qarshiliklar birligi – bu ularning uzviyligi. Har bir qarama-qarshilik boshqa bir qarama-qarshilikning mavjudlik sharti hisoblanadi. Ular alohida-alohida mavjud bo‘lishi mumkin emas (agar qarama-qarshiliklardan biri yo‘q bo‘lsa, ularning ikkinchisi ham yo‘q bo‘ladi). Ikkinchidan, qarama-qarshiliklar birligi ular bir-birini taqozo etgan va bir-biriga o‘tgan holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Har qanday qarama-qarshilik o‘zida mavjud bo‘lmagan, lekin boshqa qarama-qarshilikda mavjud bo‘lgan jihatga muhtoj bo‘ladi. Ular bir-biri bilan o‘zaro ta‘sirga kirishadi. Qarama-qarshiliklar bir-biriga ta‘sir ko‘rsatish orqali bir-biriga o‘tadi. Bu qarama-qarshiliklar makonda bir-biridan ajratilgan, turli jinsli hodisalar sifatida mavjud bo‘lmasligini, ularning har biri o‘zida boshqasining muayyan jihatini mujassamlashtirishini anglatadi (masalan, o‘quv jarayoni o‘qituvchi va talablar mavjudligini nazarda tutadi).*

Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati nima? Qarama-qarshiliklar bir-birini taqozo etar va rivojlanar ekan, biri boshqasiga «beparvo» bo'lmaydi, balki bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'rtasida qarshi harakat, kurash boradi. Uning mohiyati yagonalikka barham berishdan iborat. Qarama-qarshiliklarning har biri ikkinchisini o'zidan itarib chiqaradi, undan xalos bo'lishga harakat qiladi. SHunday qilib, *qarama-qarshiliklar kurashi qarama-qarshiliklar bir-birini inkor etgan, bir-birini istisno qilgan holda yuz beradi.*

Qarama-qarshiliklar birligi narsaning barqarorligini aks ettiradi va nisbiy, o'tkinchi hisoblanadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi mutlaq xususiyat kasb etadi, u hech qachon to'xtamaydi.

Ziddiyatlar – narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir. Ziddiyatlar borliqning barcha hodisalari va jarayonlariga xos bo'lib, o'zgarish va rivojlanishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Ayni shu sababli ziddiyat dialektik ziddiyatlilik qonunining mohiyatini yoritib beruvchi bosh kategoriya hisoblanadi. Ziddiyat – bu qarama-qarshiliklar munosabatigina emas, balki ularning tarqalish jarayoni hamdir. SHu tufayli ham, Gegel g'oyalari asoslanib, ziddiyat tarqalishining quyidagi bosqichlari (fazalari) farqlanadi: ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat va asos (ya'ni ziddiyatning echilishi).

Dialektik ziddiyat – bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshiliklarning bilvosita birligidir. Qarama-qarshiliklar – ziddiyatlarning negizi, bog'lovchi bo'g'inlar esa – ularni echish mexanizmidir. Quyidagi faktlar bog'lovchi bo'g'inlar roli va qarama-qarshiliklar tushunchasiga misol bo'lishi mumkin: Irsiyat va o'zgaruvchanlik qutblarida nafaqat organizmning avvalgi holati, balki o'zlashtirilgan yangi belgilari ham saqlanishini ta'minlovchi genetik kod bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatning o'ta boy va o'ta qashshoq qatlamlari qarama-qarshiliklari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'rta sinf bajaradi. O'rta sinf mamlakat aholisining aksariyat qismini tashkil etishi lozimligi, aks holda jamiyat holati doimo beqaror bo'lishini Aristotel qadim zamonlardayoq qayd etgan edi. Zero, mayda mulkdorlar olgan daromadining bir qismini o'z ishini rivojlantirishga yo'naltiradi, bozor kon'yunkturasini o'rganadi va unga juda tez moslashadi, bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan boyitadi. YAna bir misol – shaxs va jamiyat munosabatlari. Ma'lumki, shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklar hisoblanadi, shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar ularning o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi. Bu

va boshqa dalillar bilishda ichki qarama-qarshiliklar mavjudligini ham, bog'lovchi bo'g'inlarni ham hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi. XX asr 30-yillarining boshida ingliz fizigi Pol Dirak pozitronlar, ya'ni elektronlarga o'xshash, lekin musbat zaryadga ega bo'lgan zarralar mavjudligini bashorat qildi. Garchi olim o'z nazariyasida biron-bir xato topmagan bo'lsa-da, aksilzarralar mavjudligiga uning ishonchi yuq edi.

Shunday qilib, qarama-qarshiliklar aloqasi va ziddiyatlarni echishning biri-biri bilan bilvosita bog'liqligi umumiy xususiyat kasb etadi, aloqa usuli esa bog'lanish xususiyati bilan belgilanadi. *Bog'lovchi bo'g'inlarning o'zi ziddiyat qarama-qarshi a'zolari xossalarining uyg'unligidan tashkil topadi.*

Ayniyat va tafovut. Predmetning rivojlanishi va ziddiyatlarning echilishi bir necha bosqichdan o'tadi. Dastlabki bosqich – predmetning o'z-o'zi bilan nisbiy ayniqlik holati. Tabiatda mutlaq ayniyat mavjud emas. Masalan, har bir organizm hatto oqsil molekulasi tuzilishi darajasida ham o'ziga xos belgilarga egadir. Har qanday predmet hech qachon o'z-o'zi bilan ayniy bo'lmaydi. Masalan, ko'zguga kelar ekansiz, siz o'z qiyofangizda hech qanday farq ko'rmaysiz. O'z do'stingiz bilan oradan besh yil o'tib uchrashgach, ikkalangiz ham: «U juda o'zgarib ketibdi!», deb o'ylasangiz kerak.

Tafovut - *avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir.* «Tafovut» - har xillik, o'z-o'ziga, boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga mos kelmaslik munosabati. Tafovut kuchli yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. *Kuchli tafovut – predmetning o'z-o'zi bilan ziddiyatga kirishish omili.* Bu qarama-qarshilik bosqichi bo'lib, uning echilishi predmetning butunlay o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, ziddiyatlarning kuchayishi va o'z echimini topishi rivojlanish manbai hisoblanadi.

Rivojlanish manbai va rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchni farqlash lozim. Rivojlanish manbai – ichki hodisa, predmetning ichki ziddiyatlaridir. Vaholanki, tashqi ziddiyat ham rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Masalan, siz shamollab qoldingiz. Ayni holda tashqi muhit sizning holatingiz o'zgarishini harakatlantiruvchi kuch bo'ldi. Dialektik ziddiyat tarkibida asosiy tomon manfiy xususiyatga ega, chunki u mazkur ziddiyatni bartaraf etish, inkor qilishga qaratilgan. Musbat tomon mazkur ziddiyatni saqlashga qaratilgan.

«Ayniyat» *tushunchasi ziddiyat tarqalishining dastlabki bosqichini anglatadi. Bu bir xillik, narsa, hodisa, jihatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga o'xshashlik munosabati. Ziddiyatning vujudga*

kelishi yagonaning ikkilanishi sifatida, yagonaning o'z-o'zini qarama-qarshiliklarga differensiatsiya qilishi sifatida yuz beradi. Ikkilanish chog'ida bir vaqtning o'zida ayni shu munosabatda qarama-qarshiliklar birligi ham, ularning kurashi ham vujudga keladi. Ziddiyatning shakllanish jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi birinchi o'ringa chiqadi va rivojlanishning ichki, teran manbaiga aylanadi. Ziddiyatning o'zida qarama-qarshiliklar har xil rol o'ynaydi. Faolroq, harakatchanroq qarama-qarshilik ziddiyatning etakchi tomoni hisoblanadi. Qarama-qarshiliklar kurashi oxir-oqibatda yangi sifat holatiga olib keladi. Paydo bo'luvchi yangi hodisalar o'zlariga xos bo'lgan yangi ziddiyatlarga ega bo'ladi. Bu ziddiyatlar mazkur hodisalar rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ziddiyatlarning rivojlanish jarayoniga yanada chuqurroq kirish uchun ularning tarqalish bosqichlari (fazalari)dan tashqari, ularning holatlarini ham farqlash zarur. Predmetli-moddiy, «etilgan» ziddiyatning holati deganda qarama-qarshiliklarning amal qilish usuli, «birligi va kurashi»ning namoyon bo'lish xususiyati tushuniladi. Ayni shu xususiyat bu qarama-qarshiliklarning rivojlanish xususiyati va faollik darajasini belgilaydi. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida bosqichlarni yoki tarqalgan, «etilgan» ziddiyatni tavsiflovchi holatlarni ham farqlash mumkin. Ijtimoiy tizimlarga tatbiqan ziddiyatlarning rivojlanish bosqichlariga nisbatan bunday yondashuv ularning quyidagi holatlarini aniqlash imkonini beradi: garmoniya, disgarmoniya, konflikt.

Shuni qayd etish muhimki, ziddiyatlar rivojlanayotgan har qanday tizimda mazkur tizim mavjudligining boshidan oxiriga qadar mavjud bo'ladi. Holatlar, miqdor ko'rsatkichlari, qarama-qarshiliklarning o'zaro aloqasi xususiyati, ularning tizimdagi roligina o'zgaradi.

Ziddiyatlarning turlari. Ziddiyatlarning butun rang-barangligi turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Xususan, 1) *namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ichki va tashqi ziddiyatlar;*

2) *rivojlanishdagi roliga ko'ra – asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar;*

3) *vujudga kelish xususiyatiga ko'ra – zaruriy va tasodifiy ziddiyatlar;*

4) *jamiytdagi tipiga ko'ra – antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar farqlanadi.*

Asosiy ziddiyatlar strukturaning qarama-qarshi tomonlari o'rtasida, ikkinchi darajali ziddiyatlar esa – bog'lovchi bo'g'inlar o'rtasida yuzaga keladi. Asosiy ziddiyatlar sifatli, muhim va zarurdir. Asosiy ziddiyatlarsiz predmet, uning sifat jihatidan muayyanligi va yaxlitligi mavjud bo'lmaydi. Ikkinchi darajali ziddiyatlar tasodifiy xususiyat kasb etadi, ularning borligi yoki yo'qligi

predmetning sifatini o'zgartirmaydi. zaruriy ziddiyatlar – bir lahzalik ziddiyatlardir: ular ichki yoki tashqi, asosiy yoki ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Masalan, inson hayoti qil ustida turadigan avtomobil halokati yuz bergan paytda barcha ichki ziddiyatlar (psixologik konfliktlar, stresslar va fiziologik patologiyalar) ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Borliqning ichdan ziddiyatliligi – ob'ektiv hodisa, tabiat va jamiyatning asosiy va umumiy xossasidir. Har bir inson hayotiga kelsak, u ziddiyatlar bilan har kuni to'qnash keladi, qarorlar qabul qiladi, baholar beradi, o'z qilmishlaridan pushaymon bo'ladi, ko'pincha yo'l qo'ygan xatolaridan afsus chekadi. Har qanday voqea, vaziyat, taxminning ichki ziddiyatlarini ko'rib, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning ijobiy va salbiy tomonlarini taroziga solish tafakkurning etuklik belgisidir.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining falsafiy tafakkurlashda namoyon bo'lishi. Yuqorida aytilganidek, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuniga muvofiq har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomon va kuchlarga ega bo'lib ular o'rtasidagi kurash natijasida eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishi yuzaga keladi.

Shu bilan birgalikda Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni bilish jarayonida ham o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, bilish jarayoni bir-biriga uzviy bog'liq. bo'lgan hissiy va ratsional bilishdan iboratdir. Hissiy bilish orqali inson narsa va hodisalarning faqat tashqi tomonlari va xususiyatlari to'g'risida ma'lumot oladi, mavhum tafakkur orqali esa ularning ichki munosabatlarini belgilovchi qonuniyatlarni biladi. Bu erda hissiy va ratsional bilish bir jarayonning ikki ajralmas, ammo bir-biridan farq qiluvchi muhim tomonlaridir.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining umumiylik xususiyati moddiy dunyodagi hamma narsa va hodisalarga xos ekanligidagina emas, balki ziddiyatlar narsa va hodisalarga, ularning paydo bo'lishidan tortib halok bo'lishigacha boshidan oxirigacha singib ketgan. Bir mohiyatning turli tomonlarini ifodalagani uchun ham qarama-qarshiliklar birligi quyidagi sharoitlarda yuzaga keladi:

Birinchidan, qarama-qarshiliklar bir narsa va hodisadagina mavjuddir, chunonchi, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tafakkurga mansubdir;

Ikkinchidan, qarama-qarshilik o'zaro bog'liq, biri ikkinchisini taqozo qiladi, biri bo'lmasa ikkinchisi mavjud bo'lolmaydi.

Uchinchidan, qarama-qarshiliklarning biri ikkinchisiga o'tadi va o'zaro bir-biriga singib ketadi. Masalan, pozitron va elektron ma'lum sharoitda fotonlarga aylanadi, natijada materiyaning boshqa turi kelib chiqadi.

Qarama-qarshilikning mutaassib tomoni narsa va hodisani qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga intilsa, ilg'or tomoni uni o'zgartirishga, yoki uni barbod qilib, yangisini vujudga keltirishga harakat qiladi.

Qarama-qarshiliklar haqida Forobiyning fikri alohida e'tiborga molik. Forobiyning fikricha, faqat Oллоhning sherigi yo'q, shuning uchun ilk borliqning ziddi bo'lishi ham mumkin emas. Lekin boshqa har bir narsa karama-qarshi harakatda bo'ladi. "Qarama-qarshi bo'lgan har bir narsa, birga bo'lsa, — deydi Farobiy, — u albatda, buzilishga va o'z yo'li aynashiga olib keladi. Ziddilarning har birining tabiati shunday bo'ladi, ulardan birining qayerda bo'lishidan kati nazar birining yo'qligi ikkinchisining borligini taqozo etadi. Ziddi bo'lishi mumkin bo'lgan har bir narsada ahvol shundaydir"¹.

Tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan ziddiyatlar o'zining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi.

Ziddiyatlar xilma-xil shakllarda bartaraf etilishi mumkin. Ulardan biri eskining emirilib, yangining qaror topishidir, bunga misol sifatida iqtisodiyotning eskisi emirilib, asta sekinlik bilan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning barpo etilishini ko'rsatib o'tish joizdir. SHuningdek qarama-qarshiliklarni o'zaro ongli ravishda qo'shib, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, shu asosda taraqqiyotda ilgarilab borishdan iboratdir. Ziddiyatlarni bartaraf etishning samarali shakllaridan yana biri — konsensus (o'zaro kelishuv)dir.

Konsensus qarama-qarshi kuchlar, tomonlar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, harakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni umumiy manfaatlardan kelib chiqib hal etish yo'llaridan bo'lib hisoblanadi. U xalqlarni milliy totuvlikka, hamkorlikka da'vat etadigan yo'ldir. Konsensus muloqotlar, referendumlar, ommaviy axborot vositalari orqali eng muhim qonunlar loyihasini muhokama qilish va hokazo yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, ziddiyatlarni hal etishning xususiyati va yo'llarini to'g'ri tushuna bilishlik amaliy faoliyatimizda to'g'ri mo'ljal olishga imkon beradi.

Bizni qurshagan dunyoda ziddiyatlar juda serqirra; ularni turli asoslarga ko'ra tasniflash odat tusini olgan

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib shuni qayd etish mumkinki, dialektik ziddiyatlilik qonuni barcha narsalar, tizimlar, hodisalar va jarayonlar

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.,1993, 133-134-betlar.

ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi tomonlar va tendensiyalar bilan tavsiflanishini nazarda tutadi. Ularning o'zaro aloqasi, ular o'rtasidagi «kurash» o'zgarish va rivojlanish manbai hisoblanadi, ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu ziddiyatlar oxir-oqibatda muayyan bosqichda eskining yo'qolishi va yangining vujudga kelishi bilan echiladi.

Dialektika tizimida bu qonunning markaziy o'rni nima bilan belgilanadi? Birinchidan, bu qonun har qanday harakat va rivojlanish manbaini yoritadi, ya'ni rivojlanish nazariyasining eng muhim savollariga javob beradi. Ikkinchidan, bu qonun dialektikaning qolgan barcha qonunlari va kategoriyalarining asosi hisoblanadi. Ko'rsatilgan qonunlar va kategoriyalarning har birida biz birlik va kurash munosabati bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklarga duch kelamiz. Uchinchidan, dialektik ziddiyatlilik qonuni yagonani tafakkurda ikkilantirish va uning qarama-qarshiliklarini ularning tahlilini sintez bilan birlashtirish orqali o'rganishni talab qilib, bilish dialektik metodining bosh mazmunini belgilaydi.

Rivojlanish manbaini yorituvchi dialektik ziddiyatlilik qonunidan farqli o'laroq, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi (Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni. Hodisalarga makon-vaqt mezonini nuqtai nazaridan tavsif berish jarayonida «qaerda?» va «qachon?» savollari birinchi o'ringa chiqadi. Ularni bilishga nisbatan boshqa bir yondashuv «nima?» savoli bilan bog'liq. Ma'lum joyda va ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan mazkur hodisa nimadan iborat? U qanday xossalarga bilan tavsiflanadi? Boshqa hodisalardan uning farqi nimada va qay jihatdan ularga o'xshash? Bunday savollarga javob hodisalarni sifat va miqdor jihatidan tavsiflash orqali beriladi. Mazkur tavsif predmeti sifat va miqdor kategoriyalari bilan ifodalanadi. Eng sinchkov tahlil ham hodisada sifat yoki miqdor jihatidan tavsiflash mumkin bo'lmagan narsani aniqlash imkonini bermaydi. Binobarin, sifat va miqdor – hodisaning qoldiqsiz «parchalanuvchi» ikki tomonidir.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi

va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Sifat *narsalarga xos va ularning borlig'i bilan ayniy bo'lgan hamda ularni muayyan aloqalar tizimidagi boshqa narsalardan farqlash imkonini beradigan o'ziga xos xususiyatni aks ettiradi.* Narsalarning sifati ularning chekliligi bilan uyg'un bog'liq, zero mazkur sifat yo'q bo'lishi bilan narsaning o'zi ham yo'q bo'ladi, u boshqa narsaga aylanadi. Sifat – narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va etarli bo'lgan xossalarni majmui. Sifat – xossalarning oddiy majmui emas, balki ularning muayyan yaxlitlikdan o'rin olgan va predmetning alohida mohiyat sifatida mavjudligini belgilovchi tizimdir. Predmetlarning munosabatlari va aloqalarining rang-barangligi ayni bir predmetda qarama-qarshi xossalarni va sifatlar mavjudligini izohlaydi. Bir jihatdan engil narsa boshqa bir jihatdan og'ir bo'ladi, bir aloqada oq narsa boshqa bir aloqada qora bo'ladi va h.k. Masalan, suv va bug' bir-biridan sifat jihatidan farq qiladimi yoki miqdor jihatidanmi? Moddaning agregat holatini taqqoslaydigan bo'lsak, suv va bug' sifat jihatidan farq qiladi. Taqqoslash suv va bug'ning kimyoviy tarkibini aniqlashni nazarda tutsa, ularning o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Ammo har qanday narsa bir jihatdan bitta sifatga va turli jihatlardan ko'plab sifatlariga ega bo'ladi

Xossa-predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Xossalarni muhim va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Muhim xossalarni predmetning sifatini belgilaydi. Ularning yo'qolishi mohiyatini mazkur xossalarni tashkil etgan predmetning ham yo'qolishini anglatadi. Ikkinchi darajali xossalarni o'zlashtirilishi yoki predmetning sifatini o'zgartirmasdan yo'qolishi mumkin. Har qanday xossa (temperatura, hajm, energiya va sh.k.) muayyan miqdor va sifatga ega bo'ladi. Har qanday predmet o'zining mavjudligini belgilovchi barcha xossalarni majmuidir..

Miqdor-predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi. Barcha narsalar, jarayonlar, hodisalar sifat bilan bir qatorda muayyan miqdorga ham ega bo'ladi. Ular muqarrar tarzda muayyan o'lcham, hajm, massa va shu kabilar bilan tavsiflanadi. U sifat jihatidan o'xshash xossalarni yoki butunning qismlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Miqdoriy munosabatlar sifatga bog'lanmasdan aniqlanishi mumkin. Shuningdek, miqdor turli predmetlarning ayrim umumiy xossasi sifatida, predmetlarni sifat jihatidan tenglashtiradi. Shu ma'noda miqdor sifatning ziddidir. Ammo predmetning sifat xususiyatini mavhumlashtirish sifat jihatidan har xil tuzilmalarni o'rganishga

tadqiqotning miqdoriy metodlarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'lchash taqqoslashning o'rganilayotgan ob'ektning miqdor ko'rsatkichlarini aniqlovchi ayrim ko'rinishi sifatida, sifat haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi. Matematikada miqdoriy munosabatlar son, qiymat, funksiya, to'plam tushunchalarida ifodalanadi. Hozirgi zamon fani matematik apparatdan foydalanib, mikrodunyoning teran qatlamlariga kiradi, Olamning cheksiz makonlarini tadqiq etadi. Matematika tabiat va jamiyatni o'rganishning samarali vositalaridan biriga aylangan.

Har qanday predmet miqdor va sifat qarama-qarshiliklarining muayyan sintezidir. Uning borlig'i ob'ektga xos bo'lgan muhim xossalarni saqlashni nazarda tutadi. Olamning ko'p sifatliyligi uning elementlari nisbatan barqarorligi va mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Ammo olam, shu jumladan har qanday predmet muttasil o'zgarishda bo'ladi. Hech narsa boqiy emas. Butun borliq qachondir paydo bo'lgan va qachondir halok bo'ladi. Dunyo o'zgaradi va ayni zamonda o'zligini saqlab qoladi, o'z-o'ziga nisbatan ayniy bo'ladi.

Me'yor-predmet borlig'ining chegarasi, me'yor predmet xossalari miqdor va sifat o'zgarishlarining xususiyati bilan belgilanadi. *Me'yor – bu miqdor va sifatning shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq.* Me'yor – bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i hamdir. Me'yor – bu shunday bir chegaraki, unda miqdor o'zgarishlari narsaning sifatiga putur etkazmaydi. Gegel fikricha, «Hamma narsa o'z me'yoriga ega, ya'ni miqdor jihatidan aniqdir». Masalan, vodorod peroksidi va suv bir-biridan molekulalardagi kislorod atomlarining miqdoriga ko'ra farq qiladi. Huquqiy, axloqiy va estetik hodisalar tavsifida me'yor tushunchasi normativlik xususiyatini kasb etadi. «Aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali engiltaklik me'yori buziladi va butunlay boshqa narsa – jinoyat namoyon bo'ladi, aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali adolat haqsizlikka, fazilat nuqsonga o'tadi». Masalan, huquqda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va jazo chorasi o'rtasidagi muvofiqlikka rioya etiladi. Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalarning o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi dunyo evolyusiyasining muhim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolyusiya tendensiyalarini aniqlash, turli sistemalarning o'tmishi va kelajagi xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jihatidan bir jinsli hodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur hodisalarning kattaligini,

mavjudlik muddatini va umuman hodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi.

Shunday qilib, narsalar va hodisalar sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'ladi. Ammo narsalar va hodisalarning bu tomonlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud emasdek, ularning biri ikkinchisiga bog'liq emasdek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin amalda bunday emas. Miqdor va sifat o'rtasida dialektik aloqa mavjud: muayyan sifatni aks ettirmaydigan miqdor mavjud emas va shu bilan bir vaqtda miqdorsiz sifat ham yo'q. Mazkur sifatga qo'shimcha tarzda doim qandaydir emas, balki muayyan miqdor javob beradi. Biz, masalan, uzunligi Amudaryo ustida qurilgan ko'prikning uzunligiga teng bo'lgan stolni ko'rmaganmiz. Shuningdek oyoqlarining uzunligi 5 m bo'lgan odamni tasavvur qilish ham qiyin. Shunday qilib, har qanday sifat falsafada me'yor deb ataladigan miqdor chegarasiga ega bo'ladi.. Miqdorning me'yor doirasida o'zgarishi sifatning o'zgarishiga sabab bo'lmaydi, lekin me'yordan oshganda narsa o'zining avvalgi mohiyatini yo'qotadi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bunday o'zaro ta'siriga ko'p sonli faktlarni keltirish mumkin. Masalan, jismning tezligi sekundiga 1000, 2000, 7910 metr bo'lsa, u erga yiqiladi. Agar jismning tezligi atigi bir birlikka oshirilsa va u sekundiga 1911 metrga etkazilsa, jism Erdan ko'tariladi va uning yo'ldoshiga aylanadi. Demak, miqdor o'zgarishlari, agar ular me'yor doirasida yuz bersa, sifatni butunlay o'zgartirmaydi. Biroq, agar bu o'zgarishlar me'yor chegarasidan chetga chiqsa, o'zining muayyan miqdori va o'z me'yoriga ega bo'lgan yangi sifat vujudga keladi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi: *miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi.* Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich – uzluksizlik va uzluksizlikning birligi sifatida yuz beradi. Rivojlanishda uzluksizlik – bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluksizlik sakrash deb ataladi.

Sakrash-bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilishdir. Masalan, sakrash-bu Erda hayotning paydo bo'lishi, hayvonlar dunyosidan

insonning ajralib chiqishi, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqa ijtimoiy tuzum kelishi, buyuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlardir. Har qanday sakrash rivojlanishda o'tish davrini tavsiflaydi. O'z tabiatiga ko'ra u doim ziddiyatlidir, chunki yangining tug'ilishidan ham, eskining qarshiligidan ham dalolat beradi.

Sakrashlarning shakllari rang-barang bo'lib, rivojlanayotgan hodisaning tabiati, shuningdek unda sifat o'zgarishlari yuz berayotgan konkret sharoit bilan belgilanadi. Sakrashlar:

- 1) *o'zgarishning davomlilikiga ko'ra (jadal, sust);*
 - 2) *o'zgarish shakliga ko'ra (bir karra, ko'p karra);*
 - 3) *o'zgarishning chuqurlik darajasiga ko'ra (qisman, to'liq);*
 - 4) *o'zgarishning yo'nalishiga ko'ra (progressiv, regressiv, yo'nalishsiz)*
- farq qiladi.*

Sakrashlarni tahlil qilish chog'ida «evolyusiya», «inqilob», «islohot» kabi atamalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. «Evolyusiya» tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi «evolyusiya» asta-sekin rivojlanish jarayoni bo'lib, u miqdor o'zgarishlarinigina emas, balki sifat o'zgarishlari, shu jumladan inqiloblarni ham o'z ichiga oladi. Tor ma'noda «evolyusiya» deganda inqilobdan, uning tayyorlanishidan oldingi davr tushuniladi. «*Inqilob*» tushunchasi ijtimoiy hodisalarni tavsiflash uchun ishlatiladi va jamiyatni asta-sekin emas, balki tubdan o'zgarish yasaydigan sakrashdir. Islohot jamiyat hayotining biron-bir muhim tomonini o'zgartirish bo'lib, bunda uning iqtisodiy va davlat tartibi asoslari saqlanib qoladi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tish qonunining olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati. Demak, falsafaning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonunining mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. Sifat — narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, boshqa narsalardan ajratib turadigan xossa, belgi, xususiyatlarining birligidir. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha aniqlab beradi. Narsalarning sifati esa ularning xossalari orqali namoyon bo'ladi. Xossa narsa sifatining boshqa narsalar bilan o'zaro aloqadorligidagi tashqi namoyon bo'lishidir. Biz narsalarning ichki sifatini ma'lum bir xossalarda namoyon bo'lishi orqali bilamiz.

Har bir narsa ko'plab xossalarga, ya'ni asosiy va ikkinchi darajali xossalarga ega bo'ladi. Masalan, metall zichlik siquvchanlik, issiqlik o'tkazuvchanlik,

cho'ziluvchanlik kabi xossalarga ega. Sifat — jismning barcha xossalarini birgalikda bog'lovchidir. Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi muqarrar sur'atda xossaning o'zgarishiga olib keladi, biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Har bir narsa muayyan sistemada bir-biri bilan bog'liq, bo'ladi. Narsa qaysi bog'lanishlar sistemasiga kirsa, shu sistemaga bog'liq ravishda turli sifatlariga ega bo'ladi. Chunonchi, "stol" muayyan tabiiy materialdan, ya'ni daraxtdan yasalgan bo'lib, tabiiy sifatga ega. SHuning uchun u tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ayni zamonda stol muayyan inson mehnatining natijasi bo'lib, ijtimoiy sifatga ham ega va ijtimoiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ijtimoiy sifatlar o'z navbatida ikki rpyhga: birinchi tartibdagi ijtimoiy sifatlariga va ikkinchi tartibdagi ijtimoiy sifatlariga bo'linadi. Xuddi o'sha stol, modomiki, insonning muayyan ehtiyojini qondirar ekan, "aniq (amaliy) xis" etiladigan narsa sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, stol, modomiki, qiymatga ega ekan, u tovar sifatida gavdalanadi. Bu o'rinda stol" haddan tashqari his etiladigan narsa" tariqasida gavdalanadi. Bu esa ikkinchi tartibli ijtimoiy sifatlariga mansubdir. Narsalar sifat muayyanligidan tashqari bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega, bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidagina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti, sur'ati darajasi, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi.

Narsa va hodisalardagi miqdoriy va sifatiy tomonlar doimo bir-birini taqozo qilib, birlikda bo'ladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan narsa yo'q. Shuning uchun ham narsaga miqdoriy va sifatiy tomondan berilgan tavsif to'liq bo'ladi.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi me'yor tushunchasida ifodalanadi. Me'yor bu miqdoriy munosabatlar va ob'ektiv sifatga mos tuzilmalarning muvofiqligidir. Ob'ektning miqdori ushbu sifat doirasidan chiqmasdan muayyan oraliqda o'zgaradi. Bu oraliq chegaralari esa predmet muayyanligini, sifat va miqdor birligi sifatida me'yorni ifodalaydi. Me'yorning

buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi. Me'yor har bir narsa va hodisadagi miqdor bilan sifat o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifoda etadi. Bu o'rinda har bir narsa, hodisa miqdor o'ziga xos o'lchovga ega bo'ladi, chunki ushbu sifat xususiyati har qanday miqdor bilan emas, balki muayyan miqdor bilan uyg'unlashadi. Ushbu ob'ektga xos bo'lgan miqdoriy o'zgarishlar doirasidan chiqish shu ob'ektga xos bo'lgan me'yorning buzilishiga va uning yangi sifatga o'tishiga olib keladi.

Me'yorning turli shakllari mavjud bo'lib, nazariy bilimlar sistemasida u quyidagilarga ajratiladi: 1) oddiy me'yor alohida o'z-o'zicha olingan predmet o'lchovi; 2) sistemali, substansiyali me'yor — ushbu sistemaning elementi, bo'lagi bo'lgan predmet o'lchovi; 3) aniq me'yor — barcha haqiqiy munosabatlar yig'indisi bo'lgan predmet o'lchovi. Ijtimoiy hayot qoidalar ham g'oyat turli-tuman me'yor munosabatlariga ega.

Bir me'yordan ikkinchi me'yorga o'tish jarayoni bir holatdan ikkinchi holatga o'tish negizi (yoki nuqtasi) deyilsa, bir miqdoriy sifat holatidan ikkinchisiga o'tishning barcha halqasi esa me'yorning markaziy tuguni deyiladi.

Sifat, miqdor va me'yor tushunchalarida olamdagi narsalarning ob'ektiv va eng umumiy tavsifi ifodalanadi. SHuning uchun ham ayrim faylasuflarning narsalar sifatini sub'ektiv tushuncha deb ta'kidlashlari nazariy jihatdan asossizdir.

Miqdor va sifat birlikda, bo'lib bir-biriga o'tib turadi. Miqdor sifatga va, aksincha, ma'lum sharoitda sifat miqdorga o'tadi. Narsa va hodisalarning sifati ob'ektiv bo'lsa-da, nisbiydir, chunki ular o'rtasidagi chegara o'zgaruvchan bo'lib, ularni mutlaqlashtirish mumkin emas. Xuddi shuningdek, narsalarning miqdoriy muayyanligi ham o'zgaruvchandir. Modomiki, ob'ektiv olam doimiy harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekan, narsalarning miqdoriy va sifatiy muayyanligi, ularning xossalari ham o'zgarish va rivojlanishdadir. Miqdor va sifat o'zgarishlarining aniq holatini bilish fan va ijtimoiy amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlar bilan sifat o'zgarishlar o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdor o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish masalasiga, o'z navbatida, qadimgi faylasuflar ham e'tibor berganlar Qadimgi yunon faylasuflarining "yalitroq bosh" va "taram" nomi bilan, keltirgan misollari ma'lumdir. Suhbatdoshga quyidagi savol beriladi: agar boshdan bir dona soch

tolasi yulib olinsa bosh yaltirab qoladimi, agar g'aramdan bir dona urug' olinsa, u g'aramlik holatini yo'qotadimi? Natija, yo'q degan-javob bo'ladi. Bu hol bosh yaltiramaguncha, g'aram esa yo'q bo'lmaguncha davom etadi. Qadimgi faylasuflar bu kabi hodisalarni eng umumiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishi natijasida deb, emas balki sof mantiqiy g'ayri tabiiylik deb qarar edilar.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi haqida O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida ham ko'pgina ma'lumotlar mavjuddir. Al-Xorazmiy, al-Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Ulug'bekning matematika, algebra, astronomiya, geografiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid asarlarida miqdor (son), sifat o'rtasidagi aloqadorlik va uning hayotiy ahamiyati haqida batafsil tavsiflar berilgan. "Men, — deb yozadi al-Xorazmiy, — arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqaga kitob" ni tasnif qildim, chunki meros taqsim qilishda. vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdo va har qanday bitimlarda va shuningdek, er o'lchash, kanallar o'tkazishda (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir"¹.

Ularning fikricha, miqdor va sifat o'zgarishlarning o'zaro aloqadorligini nafaqat tabiat va jamiyat hodisalarida, balki ruhlarda hamkuzatish mumkin.

"Ruhlarning sifatlarining ... o'zaro qo'shilishi oqibatida ularning (aqliy) quvvatlari miqdor jihatdan ham tobora ortadi"¹, deb yozadi Forobiy.

Miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni ob'ektiv bo'lib, real voqelikdagi narsa va hodisalarning o'ziga xosdir. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlardan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlar muayyan chegarada sifatning barqarorligiga (turg'unligiga) ta'sir etmaydi. Miqdor o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Bu holni biz kimyo fanida yaqqol ko'rishimiz mumkii. Masalan, ikki atom vodorod bilan bir atom kislorod suvning molekulasini tashkil etadi. Agar bu elementlarni boshqacha nisbatda, ya'ni ikki atom vodorodni N_2O ikki) atom kislorod bilan biriktirsak, u holda bir yangi narsa — vodorod peroksidi hosil qilamiz (N_2O_2).

Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tish bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari natijasida vujudga kelgan yangi sifat muayyan vaqtga muvofiq

¹ Muxammed ibn Muso al-Xorazmiy. Tanglangan asarlar. T., 1983, 78-bet.

¹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T., 1993, 165-bet.

keladigan barqarorlikka ega bo'lib, shu miqdor o'zgarishlari jarayonini davom etishi uchun sharoit yaratib beradi. Bu sifat o'zgarishlarining miqdor o'zgarishlariga o'tishidir.

Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdor o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha predmetga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100°S gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi. Sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uni boshqa hodisaga aylantirishni taqazo qiladi;

uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin o'tadi va ko'p hollarda (muayyan davrgacha) sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi;

to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarishlar hisoblanadi.

Metafizik usulda fikr yuritadigan faylasuflar miqdor o'zgarishlar bilan sifat o'zgarishlarini ajratib bir-biriga qarama-qarshi qo'yadilar, ayrimlari esa faqat miqdor o'zgarishlarnigiga tan oladilar.

Miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonini tahlil qilar ekanmiz, nazariy hamda amaliy faoliyatda amalga oshayotgan o'zgarishlar mexanizminigina emas, balki ularning chuqurligi va ahamiyatini ham hisobga olish muhimdir. SHunga asosan ro'y beradigan o'zgarishlarni inqilobiy va tadrijiy (evolyusion) ga ajratish mumkin.

Bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish sakrash yo'li bilan amalga oshadi.

Sakrash iima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'tish jarayonini anglatadigan falsafiy tushunchadir. Sakrash taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan shakldir.

Sakrash miqdor o'zgarishlardan sifat o'zgarishlarga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrashlar doim asta-sekinlik bilan miqdor o'zgarishlari natijasida tayyorlanadi. Bundan shuni nazarda tutish kerakki, miqdor o'zgarishlar narsa va hodisani bir tekisda oddiy ko'paytirish yoki

kamaytirishdan iborat emas. Miqdor o'zgarishlar narsa va hodisalarning ijtimoiy tomonlarini asta-sekin o'stirib mustahkamlashni hamda salbiy tomonlarini asta-sekin susaytirishni taqozo etadi. Sakrash, shuningdek, narsa va hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlarning hal kilinishidir. Sakrash natijasida eski sifat bilan uning asosida harakat qiladigan qarama-qarshiliklar birligi tugatiladi va yangi sifatning vujudga kelishi sodir bo'ladi.

Nihoyat, sakrash — eski sifatning inkor etilishi va yangi sifatning qaror topishidir. Sakrash natijasida eskidan yangiga o'tish amalga oshadi. SHunga ko'ra narsa va hodisalarniig rivojlanishi ilgarilab boradi.

Shunday qilib dialektik sakrash quyidagi jihatlariga ega:

birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan ob'ektiv va qonuniy jarayondir;

ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning o'zgarib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

uchinchidan, sakrash eski qarama-qarshiliklar birligini tugatish va yangi sifatga mos keladigan qarama-qarshiliklarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

to'rtinchidan, sakrash narsa va hodisalarning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Amalga oshish muddatiga bog'liq, ravishda asta-sekinlik bilan ifodalanadigan sakrashdan, bir zumda shiddat bilan sodir bo'ladigan sakrashni farqlash kerak. Binobarin, kimyoviy elementlarni biriktirish jarayonida tub sifat o'zgarishlar shiddat bilan, juda tez sodir bo'ladi, ammo hayvonlar bilan o'simliklarning rivojlanish jarayonida eski sifatdan yangi sifatga o'tish birmuncha sekin sodir bo'ladi. Tez sodir bo'ladigan sakrashlar bilan asta-sekin miqdor o'zgarishlari yo'li bilan sodir bo'ladigan sakrashlarning bir-biridan farq qilishini hisobga olish kerak. Tez sakrash shunday xususiyatlarga egaki, u birinchidan, hal qiluvchi zarbaning birdan-bir ifodasi sifatida bajariladi. Bu sifatiy o'tish bo'lib, dastavval birdaniga eski tugatiladi va so'ngra yangi bunyod etiladi. Ikkinchidan, u bexosdan tez sodir bo'ladi.

Asta-sekin miqdor o'zgarishlari yo'li bilan sodir bo'ladigan sakrashlar eskini bir yo'la tugatish bilan emas, balki uzoq vaqt davomida eski sifatni yangi sifatga aylantirish bilan tavsiflanadi.

Demak, sakrashlar turli-tuman shakllarda amalga oshishi sodir bo‘ladi.

Bunda narsa va hodisalarning bir holatdan ikkinchisiga o‘tish shakllarining turli-tumanligi nimaga bog‘liq? degan savol kelib chiqadi. O‘tish shakllarining turli-tumanligi, birinchidan, narsa va hodisalarning mohiyati va xususiyatlariga, ikkinchidan, unga muvofiq keladigan sharoitga bog‘liqdir. Masalan, ijtimoiy hayotda sodir bo‘ladigan miqdor o‘zgarishlar tabiatdagi sakrashlardan tubdan farq qiladi.

Hozirgi sharoitda jamiyatimizning ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy hayotida ro‘y berayotgan jarayonlar o‘z mohiyatiga ko‘ra yangi sifatiy o‘zgarishlarga kiradi. Shular natijasida davlatimiz yuksak bosqichga ko‘tariladi. Bular o‘z-o‘zidan emas, balki keng xalq ommasining ijodiy faoliyati, ijtimoiy-siyosiy faolligi natijasida amalga oshiriladi. Bu o‘zgarishlar inqilob yo‘li bilan emas asta-sekin tadrijiy yo‘li bilan amalga oshadi.

"Jamiyatni yangilashning inqilobiy usullariga biz mutlaqo qarshimiz. Biz tadrijiy — evolyusion islohotlar yo‘li tarafdorimiz va bunga qat’iy amal qilamiz. Mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarin, xalqimiz tabiati-mentalitetini inobatga olsak, rivojlanishning mazkur yo‘li biz uchun nihoyatda maqbuldir"¹, — deydi I.A.Karimov. Ko‘rinib turibdiki, bu qonun jamiyatimizni ilmiy boshqarish va uning rivojlanishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, miqdor va sifat o‘zgarishlarining bir-biriga o‘tishi qonuni, rivojlanishning umumiy qonuni sifatidagi mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradigan «sifat», «miqdor», «me’yor», «sakrash» kategoriyalari yordamida muayyanlashtiriladi. Mazkur qonun butun borliqning rivojlanishi, harakati va o‘zgarishi qanday, qay tarzda yuz beradi, degan savolga javob berib, ob’ektiv voqelikning har qanday sohasida yangi sifatga o‘tishning ichki mexanizmini yoritadi. Ko‘rib chiqilgan qonunlar rivojlanish manbai va uning mexanizmini yoritib bersa, inkorni-inkor qonuni – rivojlanishning umumiy tendensiyasini, uning yo‘nalishini aks ettiradi.

Taraqqiyotdagi vorislik va davomlilik inkorni inkor etish yo‘li bilan amalga oshib boradi. Bu muammoni o‘rganishni inkor tushunchasi nimani ifodala shini aniqlab olishdan boshlash lozim.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo‘q», so‘zi bilan qo‘shilib ketadi, inkor qilmoq — «yo‘q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farqqiladi. Dialektikada inkor

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.:O‘zbekiston, 1999, 14-bet.

qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q», demak emas, yoki narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni-inkor qonuni. Inkorni-inkor qonunining mohiyati nimadan iborat? Ayni bir atama bunday ketma-ket qo'llanilishining ma'nosi nimada? Inkor kategoriyasi rivojlanayotgan ob'ekt tarixidagi bir lahzanigina tavsiflaydi. Bitta inkor harakati o'zgarish qaysi yo'nalishda yuz berayotgani, oldingi va keyingi voqealar oqimida u qanday ahamiyatga ega ekanligini, yuz bergan voqeaning mazmunini aniqlash uchun doim ham imkoniyat yaratavermaydi. Boshqacha aytganda, inkorni-inkor tushunchasi rivojlanish jarayonining muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

«Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Hegel tomonidan kiritilgan bo'lib, ayni shu mutafakkirning sa'y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkor va inkorni-inkor kategoriyalaridan Hegel rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan. Hegel, shuningdek uning o'tmishdoshlari va izdoshlari ko'rsatib bergan ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, inkorni-inkor rivojlanish yo'nalishini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur hodisa taraqqiyot yoki tanazzul alomati ekanligini bir inkor harakatining o'zidan aniqlash mushkul. SHu bois, masalan, qabul qilingan muayyan qonun, saylov natijalari va shu kabilar haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Ikkinchidan, inkorni-inkor rivojlanish shaklining tavsifi bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Hegelning dialektika tizimida rivojlanish mantiqiy ziddiyatning yuzaga kelishi va uning bartaraf etilishi sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon «tezis – antitezis – sintez» formulasiga muvofiq yuz beradi. Dialektika kontekstida rivojlanishning uch bosqichi ijtimoiy va tabiiy tizimlar rivojlanishining ko'p sonli ssenariylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ammo Hegel qayd etgan rivojlanishning siklliligi, uning chiziqsizligi tabiat va jamiyatda jarayonlar kechishining ancha keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Uchinchidan, tabiiy va ijtimoiy sikllarda rivojlanish ham, tanazzul ham bo'lmasligi mumkin: o'zgarish aylanma harakat qiladi. Inkorni-inkorda rivojlanish quyi bosqichining o'ziga xos xususiyatlari yuqoriroq bosqichda takrorlanishi yuz beradi. Avvalgi holatlarga qaytish imkoniyati, ya'ni o'tilgan holatlarning ayrim xossalari rivojlanishning yuqoriroq bosqichida takrorlanishi bilish va tarixning rivojlanishini tushunish uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Demak, inkor rivojlanishni yangi sifat paydo bo'lishiga olib keladigan aniq yo'naltirilgan, qaytmas o'zgarish sifatida tavsiflanadi.

Shaklan rivojlanish bir chiziqli ham, aylanma ham emas, balki rang-barangroq va murakkabroq, chunonchi: bir chiziqli va ko'p chiziqli, to'g'ri chiziqli va zigzagsimon, umumiy va xususiy, uyg'un va nouyg'undir.

Yo'nalish jihatidan rivojlanish progressiv va regressiv bo'lishi mumkin. Rivojlanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Ob'ektga nisbatan tashqi kuchlar ta'sirida yuz berishi mumkin bo'lgan harakatdan farqli o'laroq, rivojlanish o'z-o'zidan harakat, ichki jarayon bo'lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendensiyalar uning manbai hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Hegel falsafasida rivojlanish tushunchasi inkor va inkorni-inkor kategoriyalarida yoritiladi. Mazkur terminologiya mutafakkirning mantiq tizimi negiziga aylantirilgan ob'ektiv-idealistik falsafasi kontekstida tasodifiy bir hol emas. Avval «inkor» kategoriyasining mazmunini aniqlaymiz. Inkor nima? Unga ikki xil – metafizik va dialektik munosabat mavjud.

Metafizik «inkor» asosiy e'tiborni eskining yo'q bo'lishiga qaratadi, yangining saqlanishi va uni yaratish jarayonlarini deyarli e'tiborga olmaydi. SHunday qilib, metafizik inkor - inkor qilish rad etish, yo'q qilishni anglatadi.

Dialektik inkor eski sifatdan yangi sifatga o'tish bo'lib, bunda eski sifatning muayyan tomonlari, mazmuni va funksiyasining elementlari o'zgargan ko'rinishda yangi sifatga o'tadi. Dialektik inkor – bu narsani butunlay yo'q qilish emas, balki eski sifatning ba'zi bir jihatlarini saqlagan va o'zgartirgan holda uni yangi narsaga aylantirishdir. U yangi va eski sifat o'rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. *Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi:*

- 1) eskini vayron qilish, buzish;*
- 2) eskining elementlarini saqlash (vorisiylik);*
- 3) yangini yaratish, tuzish.*

Biz inkor kategoriyasi metafizik va dialektik talqinining mohiyatini aniqladik. Endi qo'sh inkor nimadan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz.

«Inkorni-inkor» shuni qayd etadiki, rivojlanish jarayoni eski sifatni inkor qilishdan boshlanadi, uni esa oradan ma'lum vaqt o'tgach yangi sifat inkor etadi. Ammo rivojlanish qanday yuz beradi? To'g'ri (yuksalib boruvchi) chiziq bo'ylabmi yoki egri chiziq bo'ylabmi? Bu masala quruq gap emas, balki u muhim ahamiyatga ega. Chunki rivojlanish jarayonida eski va yangining aloqasi bo'lmaganda, vorisiylik ham bo'lmasdi, eski butunlay yo'q bo'lar, rivojlanishni grafik ko'rinishda yangi eskidan farq qiladigan, eski esa yangida

takrorlanmaydigan to'g'ri (yuksalib boruvchi) chiziq sifatida tasvirlash mumkin bo'lardi. Biroq amalda yangida eski saqlanadi, uning elementlari yangida takrorlanadi. Ammo bu takrorlanish yuqoriroq darajada yuz beradi. Eskinin g jihatlari, elementlari yuqoriroq asosda takrorlanishi biz muhokama qilayotgan qonunning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bundan qonunning boshqa bir xususiyati kelib chiqadi. Hamonki eskinin oliy asosda qaytarilishi mavjud ekan, rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki spiralsimon chiziq bo'ylab yuz berishi, sikldan-siklga eskiga yaqinlashishi (chunki takrorlanib turishlik mavjud) va undan uzoqlashib borishi (chunki bu yangi) ayon bo'ladi.

Nima uchun bu takrorlanib turishlik muqarrar?

Gap shundaki, inkor ziddiyat bilan uzviy bog'liq, u mazkur ziddiyatning echilishi bilan belgilanadi. O'ziga xos ziddiyat bilan vujudga kelgan har qanday yangi narsani olaylik. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida narsa o'zining qarama-qarshiligiga aylanadi. Ammo inkorning mazkur bosqichida dastlabki narsadamujassamlashgan ziddiyat faqat qisman echiladi. Bu to'liqsizlik narsa o'zini inkor qilishda davom etishini belgilaydi. Birinchi inkor o'rniga ikkinchi inkor keladi va ikkinchi narsaga qarama-qarshi bo'lgan yangi, uchinchi narsa vujudga keladi, u ikkinchi narsaning inkori, ya'ni birinchi narsaning inkorining inkori hisoblanadi. Ikkinchi inkor bosqichida birinchi narsaga xos bo'lgan ziddiyat to'la echiladi.

Qo'sh inkor natijasida, dastlabki nuqtaga qaytilishi bilan rivojlanishning yuqoriroq darajasiga erishiladi, rivojlanishning boshlang'ich, lekin boyitilgan shakli tiklanadi. Rivojlanish chizig'i go'yo «spiral o'rami» aylanasini tashkil etadi, lekin uning boshi oxiri bilan tutashmaydi. SHunday qilib, rivojlanish harakatning bosqichma-bosqichligi va siklliligi jihatlari o'zida birlashtiradi. Bu qoida ham umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi.

Inkorni-inkor qonuni – bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etishlari cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlari yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlari va tomonlari sifat jihatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklliligini aks ettiradi.

Inkorni dialektik tushinish yangining eski bilanoddiy almashuvi bo‘lmasdan, balki yangi eskining bag‘ rida vujudga kelib, undagi sog‘lom tomonlardanfoydalanib, qaror topishini tan olishdir. «Ichki inkor» taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir, deb Hegel bekorga aytgan emas.

Dialektik inkor ayni bir vaqtda «yo‘q» deyish bilan «ha» deb, ya‘ni inkor etish bilan birga tasdiq lashni ham o‘z ichiga oladi. U barcha narsani butunlayrad etuvchi nigilistik qarashdan xoli bo‘lib, birpaytda sodir bo‘ladigan emirilish bilan yaralishni, xullas, narsa va hodisalarning yo‘qolishi va paydobo‘lishini bog‘lab ilgari lab rivojlanish holatini ifodalaydi. Bu dialektik inkorning muhim jihatini tashkil qiladi.

Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o‘rniga yangining kelishitabiiy-tarixiy jarayon bo‘lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yanginieski bilan vorisiy bog‘liq ekanligini ham ifoda laydi.

Inkorni inkor etish haqida to‘xtalib o‘tishdan avval uni nega shunday deb atalishini izohlamok lozim. Dialektikaning bu ta‘limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi moddiy olamdagi narsava hodisacharning doimiy ravishda o‘zgarib, bir holat dan ikkinchi holatga o‘tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi. Har birmavjud bo‘lgan narsa va hodisa o‘zigacha bo‘lgan sifat vamiqdorning inkor etilishining mahsuli, shu bilanoirga, ana shu narsa va hodisalarning o‘zi ham sharoitning o‘zgarishi, vaqtning o‘tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o‘zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko‘p roq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Inkorni inkor ana shu inkorlarning sodir bo‘lishi bilan rivojlanishning davom etishini ifodalaydi. Bunday bit ta inkor narsa va hodisalar dagi o‘zgarish va rivojlanishning bir momentini tashkil etsa, «inkorni inkor» atamasi ularning muayyan zanjirini, bir nechadavrini ifodalaydi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning tugallovchi halqasida, ya‘ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichdagi ba‘zi belgilar takrorlanadi (don o‘simlikdanyana donlarga aylanadi).

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to‘g‘ri chiziq shaklida emas, balki doira shaklidabo‘ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang‘ich nuqtagayaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqtabilan tutashishi bo‘lmasdan, balki yuqori bosqichdasodir bo‘lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga egabo‘ladi. Bu spiralning har bir yangi o‘rami oldingio‘ramiga nisbatan

yuqoriroq bosqichda yuzaga kelgan bo‘ladi. Ana shu ma’noda taraqqiyotning dialektik naza riyasida «spiralsimon» atamasi ishlatiladi.

Dialektik inkorga ko‘ra, taraqqiyotning spiralsimon xarakteri o‘zining quyidagi uch jihatiga ega: bi rinchidan, inkorni inkorda, dastavval, narsa va hodi salar abadiy o‘zgarmasdan qola olmasligi, davrningo‘tishi bilan har bir narsa va hodisa o‘zgarishi, buo‘tishda esa yangi sifat faqat emirilayotgan narsa za minida paydo bo‘lishini ochib beradi. Buni destruk siya deyiladi. Ikkinchidan, u emirilayotgan narsa bilan paydo bo‘layotgan yangi narsao‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Buni kumulyasiya deyiladi. Uchinchidan, inkor etilayotgan narsa oldin erishgan yutuqutarni, uning rivojlanishga qodir bo‘lgan ba’zi belgi va xususiyatlarni saqlab qolish, ular dan foydalanish asosida yuz beradi. Buni konstruk siya dyob yuritiladi. Shu asosda o‘zgarish, rivojlanishsodir bo‘ladi. Bundan inkorni inkorning muhim bel gisi, ya’ni narsa va hodisalarning ilgarilab rivoj lanishi, yangilikning engilmasligi mantiqan o‘z-o‘zi dan kelib chiqadi. Chunki har bir narsa va hodisa uzluksiz o‘zgarishlar, ya’ni o‘sislar va emirilishlar, paydo bo‘lish va yo‘q bo‘lish jarayonini kechirib turadi. Demak, yangi vujudga kelgan sifat, albatta, inkor eti layotgan eski sifatdan ustun va bir qadam olg‘a ketganbo‘ladi. Bu tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xosbo‘lgan ob’ektiv jarayondir.

Yuqorida aytilgan, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan uch jarayonning birligi hozirgi kunda O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqsa. Biz uchun hozir jamiyatimizda eskirgan ijtimoiy munosabatlarni iloji boricha dialektik izchillik va ziyraklik bilan o‘z vaqtida bartaraf etish, yangi paydo bo‘layot gan bozor iqtisodiyotiga oid munosabatlarni o‘z vaqtida payqab olish, ularni rivojlantirish yutuqlari mizning ko‘payishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va xalqimizkeng qo‘llab-quvvatlayotgan bozor munosabatlari jamiyatimizdagi xo‘jasizlik, shahar va qishloqlarda mehnatni tashkil qilishning eski, samarasiz usullari, hayotning hamma sohalarida boshqarishning buyruqbozlik usullari, jamiyatga zarar etkazuvchi ekologik vama’naviy buzilishlarning tugatilishiga olib keladi.

Inkorni inkor jarayonida oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga qarab boruvchi, ilgarilab boruvchi rivojlanish sodir bo‘ladi. Shuning uchun inkorni-inkor jarayonining xarakterli xususiyatlaridan biri — uni orqaga qaytarib bo‘lmasligidir. Buning sa babi shundaki, har bir yangi bosqich ilgarigi bosqich larning butun boyligini o‘zida sintezlashtirib, taraqqiyotning yanada yuqoriroq

shakllari uchun zamin yaratadi. Bu sintez «inkorni inkor» deyiladi. Inkorni inkor tufayli har bir paydo bo'lgan yangilik shuning uchun sintez deyiladiki, unda eskining rivojlanishiga qodir bo'lgan tomonlari saqlanib qolib, ular yangida paydo bo'lgan tomonlar bilan uzviy birikkan bo'ladi va shu asosda rivojlanishning navbatdagi bosqichini ta'minlaydi. Xuddi shu yo'l bilan taraqqiyotning yo'nalishi belgilanadi.

Taraqqiyotning yo'nalishi haqida turli davrlarda turlicha qarashlar mavjud bo'lgan. Uzoq davrlar taraqqiyotning yo'nalishini noto'g'ri tushunish oqibatida, faylasuflar hamma narsalar davriy takrorlanuvchi o'zgarishdan yoki bekik doira ichida doimiy aylanish lardan iborat, deb qaraganlar. Ba'zi olimlar taraqqiyotni to'g'ri chiziqli bilan boruvchi yoki takrorlanib turuvchi bosqichlardan iborat, deb tushunganlar, masalan, fransuz olimlari Lamark va Sent-Ilerlar tirik tabiatda taraqqiyot uzluksiz va sakrashsiz to'ppa-to'g'ri yo'ldan ilgarilab boradi, desalar; italiyalik faylasuf J. Viko, jamiyat o'z boshidan doimiy ravishda takrorlanib turuvchi uch bosqichni (go'daklik, yigitlik va etuklik davrini) kechirib turadi, deydi.

Shuni ham aytish kerakki, taraqqiyot jarayonida ma'lum darajadagi takrorlanishlarni uchratamiz. Lekin ularning har biri oldingi holatning oddiy o'zgarishsiz takrorlanishidan iborat bo'lmay, balki yangicha, o'zgacha yuqoriroq bosqichda sodir bo'lishidir, bundagi inkorni inkor oddiy va to'g'ri yo'l bilan sodir bo'lmay, balki o'ziga xos murakkab, egri-bugri yo'l bilan spiralsimon yo'nalishda sodir bo'ladi. Bundagi taraqqiyot jarayoniga xos inkor va inkorni inkor momentlarida bo'ladigan vaqtinchalik orqaga chekinishlar, takrorlanishlar bilan bir qatorda, ilgarilab boradigan rivojlanishni ham ko'ra bilish inkorni inkorning mohiyatini tashkil qiladi.

Tarixda, jumladan O'zbekiston sharoitida birnechabor jamiyatni orqaga qaytaruvchi katta yo'qotishlar vaqurbonlarga olib kelgan quruq inkorlar bo'lgan. Aslida, real tarixiy rivojlanish ideallashtirilgan ko'rinishidan yiroq bo'lib, o'z qadriyatlarini yo'qotmagan holda, mukammallashib boruvchi bosqichlardan iborat bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda eski va eskirayotgan narsalarni inkor etish va ularning o'rniga yangilarini qurish, yaratish davom etmoqda. Jamiyatda yuz berayotgan bozor iqtisodiyoti tug'dirayotgan o'zgarishlarni har bir kishi to'g'ri tushunib olishi lozim. Respublikani sifat jihatidan o'zgartirish, uni yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kiritish uchun hozirgi davrda har bir kishidan ko'proq kuch g'ayrat sarflashni, o'z faoliyatiga baho berishda xolis, prinsipial bo'lishni, omilkorlik va fidokorlikni talab qiladi. O'zbekistonning

mustaqilligini mustahkaylash uchun faqat iqtisodiy o'zgarishlar qilish etarli emasligi, shu bilan birga, siyosiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar ham qilish, faol ijtimoiy siyosat olib borish, inson to'g'risida ramxo'rlik, uning hayotiy manfaatlarini himoya qilish ham zarur ekanligi "O'zbek modeli" ning asosiy tamoyillaridan biridir.

Mustaqillik bizdan bilimdonlikni va yuksak darajada mutaxassislikni talab qiladi. Endilikda ishlab chiqarishni, fan va texnikani boshqarish, mehnatni, shubhasiz, yuqori darajada tashkil qilish va shukabilar har tomonlama tayyorgarliksiz, chuqur bilimlarsiz bo'lishi mumkin emas.

Mustaqillik — mustamlakachilikni qat'iyon bar taraf etish, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi ma'muriy buyruqbozlik mexanizmni butunlay buzib tashlash, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlantirishning ishonchli va samarali mexanizmini yaratish demakdir.

Mustaqillik umuminsoniy va milliy axloq normalarini buzish hollaridan xolos etish, ijtimoiy adolat tamoyillarini izchillik bilan amalga oshirish demakdir. Bu degani: so'z bilan ishning, xuquq bilan burchning birligini ta'minlash, halollik va vijdon bilan ishlab, yuqori unumli mehnatni tashkil qilish, unga haq to'lashda tekislik tendensiyalarini, iste'molchilik kayfiyatini bartaraf etish, inkor qilish demakdir.

Shunday qilib, borliq va bilishga xos inkor va inkorni inkorlar benihoya davom etaveradi. Bu abadiy davom etadigan jarayonda dialektikaning barcha tamoyillari birgalikda amal qiladi. Bunda inkorni-inkor hech bir narsa yoki hodisa abadiy o'zgarmasdan qola olmasligini, aksincha, eski o'rnini muqarrar yangi egallashini, ammo ular o'rtasida vorisiy aloqalar mavjudligini ifodalaydi.

Olamni anglashda inkorni inkor qonuni Talablariga muvofiq fikr yuritishning zaruriyatligi. Demak, inkorni inkor qonuniga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijo-biy tomonlar saqlanib qoladi. Rivojlanish burama shaklda, ma'lum nisbiy takrorlanishlar asosida, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradi.

Metafizik yo'nalish inkorning ijodiy yaratuvchilik rolini tan olmaydi. Bunday farqli o'laroq, dialektik qarash eski narsani yangi narsa inkor qilishini ta'kidlaydi. Olamda hech bir sohada o'zining ilgarigi yashash shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish sodir bo'lishi mumkin emas.

Har bir jarayon inkor qilish jihatiga ega. Ichki ziddiyatlar tufayli taraqqiyot jarayoni ertami — kechmi eski narsaning emirilishiga va yangi narsaning vujudga kelishiga olib keladi. Vujudga kelgan bu yangi narsa eskining inkor qilinishidir.

"Har bir qarama-qarshilikda bo'lgan narsa, — deydi Forobiy, boshqa tomonidan buzdirilishi lozim bo'ladi, birinchi esa o'z tabiati bilan qarama-qarshi tomonidan inkor etilgan bo'ladi. Bu esa uning aslida (substansiya-sida) mavjud bo'lgan bo'ladi"¹.

Eskining yangi tomonidan inkor qilinishi natijasida moddiy olamdagi narsa va hodisalarning ilgarilama harakati sodir bo'ladi.

Eskining rivojlanish jarayonida emirilishi — inkorni inkor qonunining faqat bir tomonidir. Uning boshqa tomonini eskining emirilish jarayoni bilan bir vaqtda vujudga keladigan yangi narsa qaror topadi. Bu yangi narsa eskining o'rnini egallab, undagi ijobiy narsalarni saqlab qolgan holda yangi, yanada yuksakroq, ilg'or holatni ifodalaydi.

Shunday qilib, taraqqiyot bir-birini almashtirib turadigan bosqichlardan iborat bo'lib, bir bosqich ikkinchi bosqich tomonidan, ikkinchisi esa uchinchi tomonidan inkor etiladi. Eskining emirilib, yangining paydo bo'lishi, taraqqiyot jarayonida dialektik inkorning ikki muhim va ajralmas jihatidir...

Inkorni inkor qonuni quyidagi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, eskining yangi tomonidan inkor etilishi — kishilarning ongi va irodasiga bog'liq. bo'lmagan ob'ektiv jarayondir. Inkor sub'ektiv, tashqaridan kiritilgan fikr emas, balki ob'ektiv jarayon taraqqiyotining bosqichidir.

ikkinchidan, dialektik inkor tashqaridan kiritilgan kuch yoki holat emas, balki narsa va hodisaning ichki rivojlanishi natijasi, o'zini-o'zi inkor qilishidir. Dialektik inkor narsani butunlay yo'q qilib yuboriladigan faoliyat bilan o'xshash emas, u shunday inkorki, buning natijasida rivojlanish davom etishiga, yangi inkor sodir bo'lishiga imkon yaratiladi.

uchinchidan, dialektika har bir narsa va hodisa uchun inkorning aniq turi mavjuddir deb hisoblaydi. Tasavvur va tushunchalarning har bir turi singari, buyumlar har bir turining ham o'ziga alohida inkor turi borki, bunda taraqqiyot sodir bo'ladi.

to'rtinchidan, dialektik inkor to'liq inkor bo'lmasdan balki eskini yangi bilan bog'lab turuvchi jarayondir. Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi vorislikni tavsiflaydi.

¹Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.,1993, 133-134-betlar.

bashinchidan, dialektik inkor taraqqiyotning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishini tavsiflaydi, bir sifatdan boshqa sifatga o'tiladi.

Inkorni inkor qonuni ob'ektiv olamning va bilishning turli sohalarida ko'plab uchraydigan keng ta'sir doirasiga ega bo'lgan qonundir. Agar arpa erga ekilsa, u issiqlik va namlik ta'sirida ko'karadi va undan o'simlik paydo bo'ladi. Endilikda arpa (don) o'zini (o'zi) inkor etadi. O'simlik o'sadi, gullaydi, changlanadi va nihoyat yangidan arpa (don) etishadi, donlar etiladi. Poyasi quriydi, ya'ni inkor etiladi. Inkorni inkorning natijasi sifatida biz bunda yana avvalgi arpa (don) ni ko'ramiz, lekin endi bir don emas, bir necha don bo'lganini ko'ramiz. Inkorni inkor qonuni jamiyat ma'naviy hayotida ham namoyon bo'ladi.

Falsafada inkorni inkor qonuni birinchi bor Hegel tomonidan ta'riflangan. Uning fikricha, dastlabki bir butun fikr (tezis) bir-biriga zid bo'lgan ijobiy va salbiy, "ha" va "yo'q" dan iborat ikki fikrga bo'linadi. Butunning ikkiga bo'linishi — antitezis, inkordir. Qarama-qarshi fikrlar kurashi oxirida birikib yangi fikr (sintez, inkorni-inkor) hosil qiladi. Shunday qilib, Hegelning fikricha, sof g'oya o'z taraqqiyotida uch bosqichdan o'tadi: tezis, antitezis va sintez. Hegelning ta'limotiga ko'ra, nimaiki sof g'oyaningrivojlanishiga mansub bo'lsa, u moddiy borliqning hamma narsa va hodisalariga ham mansubdir.

Inkorni-inkor qonuni taraqqiyotda vorislik (ilgarilab borish, an'anaviylik) va qaytariluvchanlikning (davriylik, eskiga qaytish kabi) birligini tavsiflaydi. Natijada taraqqiyot to'g'ri chiziqli emas, balki "burama" shaklda amalga oshadi.

Taraqqiyot jarayonining ilgarilab borish xususiyati eski o'rniga keladigan yangi doimo yangi bo'lib qolmasdan, vaqt o'tishi bilan u ham eskiradi va o'z navbatida inkor qilinadi. degan ma'noni anglatadi. Buning natijasida taraqqiyot jarayoni ikkilanma inkor sifatida ko'rinadi. Dialektik inkor taraqqiyotni ifodalaydi. Masalan, suv qizdirilganda bug'ga aylanadi, sovutilganda esa yana suvga aylanadi. Metall qizdirilganda suyuq, sovutilganda esa qattiq holatga o'tadi. Bu erda biz bir holatningboshqa holat tomonidan inkor etilishini ko'ramiz. Lekin bu erda rivojlanish sodir bo'lmaydi, balki bir hodisaning boshqa hodisa bilan almashinishi sodir bo'ladi. Dialektik inkor yuqorida ko'rsatilgan inkordan farqli o'laroq shunday ziddiyatlarni hal qilishni maqsad qilib qo'yadiki, buning natijasida taraqqiyotda yuqori bosqichgaerishiladi.

Dialektik inkorning yana bir muhim xususiyatini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi inkor eskini emiribgina qolmay, oldingi rivojlanishdagi butun ijobiy tomonlarni umumlashtiradi, ya'ni sintez qiladi.

Inkorni inkor rivojlanishning ma'lum bir davrini tugallaydi, lekin u shu bilan birga keyingi harakat uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi inkor harakatning shart-sharoitlarini ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, inkor tushunchasi davrni ham ifodalaydi. Bu davr shundan iboratki, ma’lum jarayonning tugallanish bosqichi yangi dialektik davr uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib qoladi va shunday holcheksiz davom etadi. Bir munosabatda sintez bo‘lgan narsa boshqa munosabatda yangi rivojlanishning boshlang‘ich nuqtasidan iborat bo‘ladi.

Dialektik taraqqiyot to‘g‘ri chiziqli harakat bo‘lmay, balki asta-sekin ko‘tarilib, kengayib boradigan, bir-biri bilan umumiy vorislik yo‘li bilan bog‘langan yuksak bosqichda boshlang‘ich nuqta jihatini o‘z ichiga oladigan burama harakatdan iborat.

Taraqqiyot ayrim hollarda quyiga qarab boradi. Bunga moddiy tizimlarning emirilishi, materiya harakatning murakkab shakllari oddiy shakllarga o‘tishi misol bo‘la oladi. Ammo shuni aytish kerakki, taraqqiyotning orqaga qaytishi ilgarilama harakatdan vaqtincha chetlashishdir.

Ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatning rivojlanishi hech qachon to‘xtab qolmasligi qonuniy va o‘zgartirib bo‘lmaydigan jarayondir.

Rivojlanishning pastdan yuqoriga ko‘tariluvchi yo‘nalishini dialektik tushunish doiraviy harakat to‘g‘risidagi metafizik nazariya bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Ba’zi bir olimlar dunyoda bo‘layotgan ba’zi bosqichlarning qaytarilishini oddiy eskilikka qaytish deb hisoblamoqdalar. Ularning fikricha, tabiat va jamiyat hayotining ibtidosi va intihosi butunlay mos keluvchi ma’lum davr sikl yoki aylanma bo‘yicha bo‘ladi. XVIII asrda yashagan italiyalik faylasuf J.B.Vikoning ta’kidlashicha, jamiyat o‘z taraqqiyotida uch davrni bosib o‘tadi emish, chunonchi: 1) bolalik davri. Bu davrda diniy dunyoqarash va zo‘ravonlik hukmronlik qiladi; 2) o‘smirlik davri. Bu davrda aristokratlik, ritsarlik va etuklik ravnaq topadi; 3) etuklik davri.

Boshqa bir faylasuf O.Shpingler jamiyat o‘zining rivojlanishida bunyod bo‘lish (1), gullab yashnash (2), inqirozga yuz tutish (3) davrlarini boshdan kechiradi, deydi. Uning fikricha, insoniyat tarixining hozirgi bosqichi inqirozlar davridirki, shunga ko‘ra hozirgi zamon madaniyatining barcha yutuqlari butunlay yo‘q qilinishi lozim emish.

Ingliz tarixchisi Toynbining ta’biricha, jamiyat tarixi qorong‘i va o‘zaro aloqada bo‘lmagan sivilizatsiyadan iborat. Har qanday sivilizatsiya bir rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tadi: bahor va yoz, kuz va qish, yoki bolalik, usmirlik, etuklik va karilik. Toynbining ko‘rsatishicha, G‘arb sivilizatsiyasi etuklik bosqichidadir va u kelajakda rivojlanish xususiyatiga ega. Amerikalik professor Rayt esa jamiyat tarixi ma’lum bir bosqichlardan, ya’ni qaxramonlik asri,

g'alayonlik vaqti va tiklanish davrlarining shu taxlitda takrorlanishidan iborat, deb tasvirlab beradi. Uning fikricha, hozirgi sivilizatsiyadan keyin insoniyat faqat orqaga qaytish bilan rivojlanarmish.

Taraqqiyot yuqoriga ko'tarilish xususiyatiga ega bo'lib, u oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga tomon boradi. Masalan, mikroolamda rivojlanishning ilgarilab borishi kimyoviy elementlarda atom yadrosi, atomlarning molekulalarga va keyinroq mikroskopik jismlarga aylanishida, koinotda esa uning jismlarining gaz va changsimon materidan vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Noorganik materiyaning organik materiyaga aylanishi, hayvonot olamidan insoniyatning ajralib chiqishi ham bunga yorqin misol bo'la oladi. Ijtimoiy rivojlanish ham taraqqiyot sari borayapti.

Eskining o'rniga yangining kelishi uning kundan-kunga mustahkamlanishi, rivojlanishi va ularning ajralmasligi taraqqiyotning boshlanish xususiyatini belgilaydi. Yangi eskining o'rnini egallab borishda eskidan ijobiy muhim tomonlarni o'zida mujassamlashtirib, yuqoriroq sifat xususiyatlarga aylanadi. Eskining o'rniga kelgan yangi dastlab imkoniyat ko'rinishida bo'ladi. Bu imkoniyatning voqelikka aylanishi ma'lum shart-sharoitlardagina amalga oshadi. Ijtimoiy hayotda yangilikning g'alabaga erishuvini ta'minlashda kishilarning faoliyati zarurdir.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etyapti. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani yangidan barpo etishni bildirmaydi. Aksincha, jamiyatimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy — iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolish, ularni yanada boyitib rivojlantirishdan iboratdir. Bu mazkur qonunning talabidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir.

"Bizning tushunishimizcha, — deydi I.A.Karimov, — qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish — o'z tarixiy o'tmishimizdan voz kechish degani emas. Bu biryoqlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir"¹.

Yuqorida biz falsafaning uchta asosiy qonunlari mazmun-mohiyatini tavsiflab berishga harakat qildik. Endilikda shuni eslatib o'tish joizki, olamni anglashda mazkur qonunlarni e'tiborga olish, ularning talablariga mos ravishda fikrlash va amal qilish katta metododolik ahamiyatga ega.

1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997, 151-bet.

Falsafiy tafakkurlash voqelikdagi narsa va hodisalarga xos bo'lgan barcha aloqalarni, ziddiyatlarni, ularning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish, har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Falsafa olamdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorlik va taraqqiyot qonunlari haqidagi fan bo'libgina qolmasdan, balki tafakkurlash, fikr yuritish, dunyoni bilish haqidagi ham fandır. Shunday ekan har bir inson o'z amaliy faoliyati va ilmiy bilish jarayonida falsafa fanining mazmun-mohiyati, uning rang-barangligi, ko'p qirrali tomon va xususiyatlarini hisobga olib ularga ongli ravishda amal qilishlari lozim.

Falsafiy qonunlarning o'zaro aloqadorligi.

Dialektikaning asosiy qonunlari yagona rivojlanish jarayonining turli jihatlarini tavsiflab, alohida-alohida emas, balki uzviy dialektik birlikda amal qiladi. Masalan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va buning aksi ziddiyatni ham, dialektik inkorni ham o'z ichiga oladi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi miqdor-sifat munosabatlarini va inkorni-inkorni o'z ichiga oladi. Xuddi shuningdek inkor jarayonida yagonaning eski va yangiga ikkilanishi, ularning o'rtasida qarama-qarshilik, shuningdek miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy dunyoning yagonaligi qonunlar amal qilishining umumiyligini nazarda tutadi. Ammo shuni e'tiborga olish lozimki, dialektika qonunlari bir vaqtda amal qilganda, ularning har biri nisbatan mustaqil bo'ladi, zero rivojlanish mohiyatining muayyan jihatini (manba, mexanizm, yo'nalish) aks ettiradi, rivoshlanishning zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi, o'z mavjudligining avvalgi shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Inkor harakatida rivojlanishga monelik qiladigan narsalarning rad etilishi, yo'q qilinishi yuz beradi. Umuman olganda inkor – ob'ektiv jarayon. Masalan, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, kengayib borayotgan plazmani yo'q qilib tashlagan Katta portlashsiz biz yashayotgan Olam, uning galaktikalari, yulduzlari va sayyoralari ham, inson ham bo'lmas edi. Ammo inkorni sof yo'q bo'lish sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo'lish lozimligini Hegel ham, boshqa faylasuflar ham qayd etadi. Bunday inkor «behuda», metafizik inkor deb e'tirof etiladi. U tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud. Lekin oddiy yo'q bo'lish jamiyatni ortga uloqtirib tashlaydi, xolos. Vaholanki, tarix kul tepasida jo'yali bir narsa yuzaga kelishi mushkul.

Dialektik inkor rivojlanish omili hisoblanadi, chunki u bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Hegel fikricha, bartaraf etish «ikki xil ma'no kasb etadi: u asrash,

saqlab qolishni va ayni vaqtda to'xtatish, chek qo'yishni anglatadi»¹. Hegel talqinida inkor rivojlanish omili sifatida yashash qobiliyatini yo'qotgan narsani yo'q qilish va erishilgan rivojlanishni saqlashni nazarda tutadi. Masalan, A.Eynshteyn yangi va eski nazariyalarning o'zaro nisbatini shunday tavsiflaydi: «yangi nazariya... eski nazariya yutuqlarini chetga chiqarib tashlaydi, deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Yangi nazariya eski nazariyaning afzalliklarini ham, kamchiliklarini ham namoyon etadi va bizga eski tushunchalarga teranroq nuqtai nazardan baho berish uchun imkoniyat yaratadi... Biz eski nazariya o'rinli bo'lgan sohada faktlar o'rganilayotganda har safar undan foydalanishimiz mumkin». Ammo har qanday hodisa yaxlit bo'lgani bois, bartaraf etish haqidagi masalaning qo'yilishi abstrakt xususiyat kasb etadi. XIX asr falsafiy ta'limotlarida bartaraf etishning tabiat va tarixdagi ko'rinishlarini erishilgan rivojlanishni o'zgartirilgan holda saqlash sifatida yoritib, bu tushunchani to'ldiradi. Yangilik va eskilikning ichki ziddiyatlariga chek qo'yish sifatidagi o'z-o'zini inkor dialektik inkorning muhim xususiyati bo'lib, bu rivojlanishning hujumkorligini belgilaydi. Bu qonun dialektikaning boshqa qonunlarini umumlashtiradi va ularni sintez qiladi.

¹Гегель Г.В. Соч. Т. 5. – М.: 1997. – С.99.

MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni 70-90ta	O'quv vaqti – 2 soat
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha vizuallashtirgan-ma'ruza
Ma'ruza mavzusi:	<i>O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari</i>
Ma'ruza rejasi	1. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari 2. Qarama – qarshiliklar birligi va o'zaro ta'siri qonuni 3. Miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni 4. Inkorni inkor qonuni
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Rivojlanish va o'zgarish tushunchasi, qonun tushunchasi, qonunlarning turlari va Falsafiy qonunlar to'g'risidagi umumiy tasavvurni shakllantirish.	
<i>Ma'ruzaning mazmuni:</i> Falsafada qonun tushunchasi va uning mohiyati. Tabiat va jamiyat qonunlaridagi umumiylik va tafovut. Eng umumiy, umumiy va xususiy qonunlar, ularning o'zaro aloqadorligi. Qonun va qonuniyat. Dialektikaning asosiy qonunlari: miqdor va sifatning o'zaro o'tish qonuni. Respublikamizda mustaqillik tufayli ro'y berayotgan tub sifat o'zgarishlari va ularning mohiyati. Dialektik ziddiyatlik qonuni va uning mohiyati. Bu qonunning tabiatda, jamiyatda, ilmiy bilishda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Dialektik ziddiyatlar va ularning turlari: ichki va tashqi, asosiy va noasosiy, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar. Ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llarini bilishning amaliy va ilmiy ahamiyati. Qarama-qarshilik ziddiyatlikning bir ko'rinishi sifatida. Inkorni inkor qonuni, uning mohiyati. Mustaqillikni mustaxkamlash jarayonida vorislikka munosabat. Bu jarayonning milliy mafkurani shakllantirish va komil inson tarbiyasi uchun ahamiyati.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Qonun tushunchasi, qonunlarning turlari haqida ma'lumot berish. Falsafiy qonunlarining asosiy shakllari, qarama-qarshilik va ziddiyat tushunchalarini izohlab berish. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, Miqdor o'zgarishlari va sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni, Inkorni-inkorlarining mohiyatini tushuntirib berish.	
<i>O'qitish usuli va shakli</i>	Ma'ruza, savollar, topshiriqlar, dialog,

	aqliy hujum, jamoa bo'lib ishlash
<i>O'qitish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan o'quv xonasi
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonining vaqti	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 daqiqa)	1. 1. Ma'ruzaning mavzusini va rejasini elon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.(1-ilova)	Yozib oladi
	1. 2. Mavzuni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarurbo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi(2-ilova)	Tinglaydi va yozib oladi
	1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi. (3-ilova)	Tinglaydi, kuzatadi va yozib oladi
2-bosqich Asosiy bo'lim (50 daqiqa)	2.1.Ma'ruzaning birinchi savoli « Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari»ni muammoli vizual materiallar (4,5-ilovalar) yordamida yoritib beradi va « blis-so'rov » (6-ilova) orqali talabalarni mavzuni o'zlashtirishini faollashtiradi	Tinglaydi. Fikrini erkin bayon qiladi
	2. 2. O'quv mashg'ulotining ikkinchi savolibo'yicha ma'ruza qiladi. «qarama – qarshiliklar birligi va o'zaro ta'siri qonuni»ni tahlil qiladi (7,8,9-slaydlar)	Tinglaydi, kuzatadi va yozib oladi
	2.3. « Miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni»	Tinglaydi, kuzatadi va

	masalasini yoritib beradi (10, 11, 12, 13-ilovalar)	yozib oladi
	2.4. Ma'ruzaning to'rtinchi savoli « Inkorni inkor qonuni»ni muammoli vizual materiallar (14,15,16-ilovalar) yordamida yoritib beradi va «FSMU jadvali» (17-ilova) orqali talabalarni mavzuni o'zlashtirishini faollashtiradi	Tinglaydi. Fikrini erkin bayon qiladi, topshiriqni bajaradi
3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)	3. 1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa chiqaradi (18-ilova) .Mavzu yuzasidankrasvord yechish (19-ilova) hamda mashqlar (20-ilova) usulida o'rganilgan bilimlarni mustahkamlaydi	Tinglaydi. Krasvordni echishda ishtirok etadi
	3. 2. Faol talabalar rag'batlantiriladi	O'z-o'zini nazorat qiladi
	3. 3. Kelgusi mashg'ulot mavzusi va unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi	Tinglaydi Yozib oladi

00

ILOVALAR

1-ilova

O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari

1. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari
2. Qarama – qarshiliklar birligi va o'zaro ta'siri qonuni
3. Miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni
4. Inkorni inkor qonuni

2-ilova


Adabiyotlar:


- Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. -T.:O'zbekiston,1999 14-19-betlar.
- Xorazmiy al Muhammad ibn Muso. Tanlangan asarlar. -T.,1983,78- bet.
- Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.- T., 1993, 133, 134, 165- betlar.
- Tulenov J., G'ofurov 3. Falsafa. Darslik. -T.:O'qituvchi,1997,203-222-betlar.
- Tulenov J. Dialektika nazariyasi.-T.: Sharq, 2001
- Falsafa qomusiy lug'at. Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: Sharq, 2004
- Falsafa asoslari Nazarov Q. tahriri ostida. –T.: Sharq, 2005
- Мамадалиев Ш.О. Методологическое значение структуры диалектического противоречия в познание. // Дисс... канд... филос. наук. –Т.: Институт философии и права. 1991.
- Сеитов П.Д. Системность диалектики // Дисс...канд...филос..наук-Т.: Институт философии и праваимени И.Муминова 1993.
- Алексеев П.В., Панин А.В. Философия: Учебник. -М.: 1997.
- Микешина Л.А., Опенков М.Ю. Новые образы познания и реальности. -М.: 1997.

Tayanch tushunchalar:

- **Tamoyil** — yoʻnalish, tendensiya, moyillik
- **Sifat** — narsalarning ichki muayyanligi boʻlib, boshqa
- narsalardan ajratib turadigan xossa, sifatining boshqa narsalar bilan aloqadorligida tashqi namoyon boʻlishi
- **Miqdor** — narsalarning hajmi, oʻlchovi, ogʻirligi, harakati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha
- **Meʼyor** — miqdor va sifat birligi
- **Sakrash** — miqdor oʻzgarishlaridan sifat oʻzgarishlariga oʻtish jarayon
- **Ziddiyat** — qarama-qarshiliklar oʻrtasidagi munosabatlar
- **Inkor** — rad etish, qabul qilmaslik
- **Vorislik** — oʻtmish bilan bugungi kun oʻrtasidagi bogʻliqlik, davomiylik, uzluksizlik
- **Qonun** — muayyan shart-sharoitda, voqealar rivojining hususiyati va yoʻnalishini belgilaydigan, maʼlum bir qatʼiy natijani taqozo etadigan tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya.

TARAQQIYOT QONUNLARINING UMUMIY TASNIFI






1-o'quv topshiriq Blis-so'rov


№	Savollar	Javoblar
1	Qonun nima?	
2	Qanday qonunlarni bilasiz?	
3	Qonunlarni bilishning ahamiyati nimada?	
4	Qonunlarni kim yaratadi?	
5	Qonunlarning qanday turlarini bilasiz?	
6	Biz qonunlarni qanday bilamiz?	



QARAMA-QARSHILIKLAR BIRLIGI VA KURASHI QONUNI




Aloqalarning tasnifi va xususiyati

Aloqalarning asosiy turlari			Aloqalarnnig xususiyatlari		
Materiyaning asosiy turlariga va uning harakat shakllariga xos boʻlgan aloqalar			Materiya mavjudligining asosiy shakllariga xos boʻlgan aloqalar	Qonun, hodisani belgilaydigan aloqalar	Qonun, hodisani belgilamaydi -gan aloqalar
Ijtimoiy	Moddiy-energetik	Makonga doir	Ichki	Tashqi	
Biologik		Vaqtga doir	Muhim	Ahamiyatsiz	
Kimyoviy		Strukturaviy	Zaruriy	Tasodifiy	
Fizik	Informatsion	Genetik	Barqaror	Beqaror	
Mexanik		Sababiy	Umumiy	Yakka	
		Funksional			









12-ilova



13-ilova








2-o'quv topshiriq
FSMU jadvali
 Inkorni-inkor qonuni qaerlarda amal qiladi?


F	(FIKRINGIZNI BAYON ETING).
S	(FIKRINGIZ BAYONIGA BIROR SABAB KO'RSATING).
M	(KO'RSATILGAN SABABGA TUSHUNTIRUVCHI MISOL KELTIRING).
U	(FIKRINGIZNI UMUMLASHTIRING).



O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari mavzusi bo'yicha krasvord

Eniga: 2. Prinsip. 4. Moddiy va ma'naviy hodisalarning ularning harakat va rivojlanish xususiyati va yo'nalishini belgilovchi ob'ektiv, muhim, zaruriy, barqaror va umumiy aloqasi. 9. Nemis faylasuf. 10. Suhbat qurish san'ati. 11. Predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi. 12. Garmoniya, disgarmoniya, 14. Avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir. 16. Bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilish. 17. Narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va etarli bo'lgan xossalar majmui.

Bo'yiga: 1. «Evolyusiya – ... ». 3. Inkorni - ... qonuni. 5. Borliqning nisbatan mustaqil va nisbatan barqaror holda mavjud bo'lgan bir qismidir 6. Bu narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi. 7. Nemis faylasuf. 8. Narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir. 9. Predmet borlig'ining chegarasi. 13. Predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. 15. Qarshiliklar – predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlaridir.



O'ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH QONUNLARI MAVZUSI BO'YICHA MASHQLAR.

1. Dialektikaning muqobillari bormi? Agar bor bo'lsa ularni asoslang.
2. Quyidagi misollarni ko'rib chiqing va ularda inkorni-inkor qonuni amal qilishi yoki qilmasligini isbotlang.
 - A). Odatda qarilikda inson yosh bolaga o'xshab qoladi degan fikr bor.
 - B) Tarix, dastlab bozor iqtisodiga o'tish muammosi 1920 yillarda (yangi iqtisodiy siyosatga o'tish, nep) SSSRda sotsialistik tizimning rivojlanishi jarayonida qo'yilgan va 1991 yilda SSSR parchalanishi bilan yana bu masalaga qayta murojaat qilindi.
3. Qonunlarni bilasizmi? Sizning hayotingiz qanday qonunlarga buysunadi?
4. Shoir Toshpulat Axmedov Vatanga munosabatni shunday bildiradi:

Shodlanib qarayman jamolingga man
Zardo'zi do'ppiday kamolingga man
Kimdir, seni jarga otmoqchi bo'ldi
Shoir bitta xolga sotmoqchi bo'ldi.
Men seni alishmam ming bitta xolga
Ming bitta chiroyga xazina molga
Sen menga umrdek ezgu bebaho
Jahonim, jononim, jonim Buxoro.

Ushbu misralarda qandaydir sifatning son o'zgarishi jarayonini ko'rib chiqing va ularda sifat o'zgarishiga olib keluvchi tayanch o'qni toping. Tabiatda cheksiz son o'zgarishlari bo'lishi mumkinmi?

5. Son ko'rsatgichiga ega bo'lmagan ko'plikni ayta olasizmi? Son bilan belgilanmaydigan ko'plik bormi?
6. Quyidagi fikrlar mantiqan ziddiyatli bo'la oladimi? “Daryo oqadi va oqmaydi”, “Qo'shiq eshitilmaydi va eshitiladi”, Bu fikrlar dialektik ziddiyatni ifodalaydi deyish mumkinmi ?
7. Qandaydir asosga tayanayotgan pona egiladi. Bunda uning yuqori qismi siqiladi, quyi qismi esa kengayadi. Oqibatda pona bir vaqtning o'zida ham siqiladi ham kengayadi. Bu xulosa mantiqan ziddiyatli bo'ladimi? Ponaning o'rta qismida nima sodir bo'ladi, u siqiladimi yoki kengayadimi?

O'ZARO ALOQADORLIK VA RIVOJLANISH QONUNLARI MAVZUSI BO'YICHA TESTLAR

1. “Dialektika” so’zining ma’nosini toping.

- A) yun. Dialektika – suhbat ko’rish san’ati
- B) yun. Dialektika – sezgi, xis-tuyg’u
- V) yun. Dialektika – ong
- G) yun. Dialektika – ongsizlik

2. Aloqa deganda nima tushuniladi?

- A) Dunyoda yuz beruvchi barcha jarayonlarni, ularning mazmunidan kat’iy nazar qamrab oluvchi jarayon
- B) Fundamental qoida, birinchi asosni, biron-bir konsepsiya yoki nazariyaning muhim asosi
- V) Borliqning universal aloqalarini bilish shakli
- G) Makon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yoki ob’yektning o’zaro bog’lanish jarayoni

3. Aloqa uchun asos bu - ... ?

- A) Aloqa yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi ayrim xossa, belgi yoki munosabat
- B) Kategoriyalar
- V) Tamoyillar
- G) Aloqa manbai

4. Aloqa tushunchasi qaysi tushunchalar orqali yoritiladi?

- A) Ichki, muhim, zaruriy aloqalar
- B) Dialektik, sinergetik
- V) Sabab va oqibat
- G) O’zaro aloqa, harakat

5. “Moddiy va ma’naviy hodisalarning ularning harakat va rivojlanish xususiyati va yo’nalishini belgilovchi ob’yektiv, muhim, zaruriy, barqaror va umumiy aloqasi” deb ta’riflangan falsafiy kategoriyaning toping?

- A) Munosabat
- B) Qonun
- V) Aloqa
- G) Narsa

6. Aloqaning muhimligi bu - ...?

- A) Narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi aloqa
- B) Muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo’luvchi aloqa
- V) Ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa
- G) Ob’yektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari buyunadi.

7. Aloqaning zaruriyligi bu - ...?

- A) Narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi aloqa
- B) Muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo’luvchi aloqa
- V) Ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa
- G) Ob’yektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo’ysunadi.

8. Aloqaning barqarorligi bu - ...?

- A) Ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa
- B) Ob’yektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo’ysunadi.
- V) Narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi aloqa
- G) Muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo’luvchi aloqa

10. Aloqaning umumiyligi bu - ...?

- A) Narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi aloqa
- B) Muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo'luvchi aloqa
- V) Ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa
- G) Ob'yektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo'ysunadi.

11.Narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi bu - ...?

- A) Qonun
- B) O'zgarish
- V) Rivojlanish
- G) Sabab

12 .Qarama-qarshilik bu - ...?

- A) Narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi.
- B) Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi
- V) Ob'yektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo'ysunadi.
- G) Predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlaridir.

13. Narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlari deb e'tirof etiladigan kategoriya bu - ...?

- A) Qarama-qarshilik
- B) O'zgarish
- V) Ziddiyat
- G) Aloqa

14. Tafovut bu - ...?

- A) Narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlari
- B) Avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgan holda ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir.
- V) Predmetni bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlari
- G) Narsalar, xodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi

15. Quyidagi javoblardan xossa kategoriyasi ta'rifini aniqlang?

- A) Avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgan holda ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir.
- B) Predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlaridir.
- V) Narsalarning o'zaro mavjudlik usuli, ularda yashirin xossalarning namoyon bo'lish omili
- G) Predmetning jihati bulib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi

16. Miqdor bu - ...?

- A) Predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi
- B) Predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlaridir
- V) Predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi.
- G) Narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui.

17. Qaysi qatorda Aristotelning asari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. «Kategoriyalar»
- B. «Axillislar»
- V. «Sher ustidagi gulxan»
- G. «Utopiya»

18. Ikki yoki bir nechta suhbat – ...?

- A. «Dialog»
- B. «Qissa»
- V. «Romon»
- G. «Dialog va romon»

19. O'zgarish – bu...?

- A. Narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi.
- B. Barqaror xolatda bo'lish
- V. Sokinlikka o'tish
- G. Biron bir narsa xodisalar holati

20. Predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlar nima deb ataladi?

- A. Qarama-qarshiliklar
- B. Dalillar
- V. Isbotlar
- G. Barcha javoblar to'g'ri

21. «Ariqda oqayotgan muayyan suvga ikki marta tushib bo'lmaydi, chunki yangi va yangi suvlar oqib kelaveradi...»

- A. Geraklit
- B. Zenon
- V. Arastu
- G. Pifagor

22. Dialektik inkorning birinchi muhim jihatini aniqlang?

- A. Eskini vayron qilish, buzish
- V. Eskidan hech narsa qoldirmaslik
- G. Boriga ko'nikma hosil qilish

23. Dialektik inkorning ikkinchi muhim jihatini aniqlang?

- A. Eskining elementlarini saqlash (vorisiylik);
- B. Ziddiyatlarni yaratish
- V. Miqdordan sifatga o'tish
- G. Narsalardagi tafovut

24. Dialektik inkorning uchinchi muhim jihatini aniqlang?

- A. Yangini yaratish, tuzish
- B. Xususiy qonunga amal qilish
- V. Dissapativ holatni shakllantirish
- G. Bifurkatsiya holatiga o'tish

25. Sifat – bu

- A. Narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui.
- B. Narsaning tashqi ko'rinishi
- V. Vorsiylikning amal qilishi
- G. O'z-o'zini tashkillashtirish

26. Dialektikaning (falsafaning) asosiy prinsiplari...

- A. Obyektivlik, aloqadorlik, rivojlanish, tarihiylik, sistemalilik
- B. Moddiylik, universallik, asoslanganlik, sababiyat, sistemalilik
- V. Qarama-qarshilik, harakat, o'zgarish, umumiylik, vorisiylik
- G. Dunyoviylik, aniqlik, maqsadga muvofiqlilik, sistemalilik

27. Qonun bu

- A. Borliqdagi barcha narsalarning eng umumiy aloqalari, bog'lanishlaridir
- B. Narsa va hodisalarning umumiy aloqadorligi, tuzilishi va sababiy bog'lanishlarini ifodalovchi tushunchadir
- V. Tabiatdagi narsa va hodisalarinig doimiyligi va o'zgarishini ta'minlaydigan kuchdir
- G. Narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, zaruriy, barqaror bog'lanishlardir

28. Miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni... ko'rsatib beradi

- A. Taraqqiyotning qanday sodir bo'lishi yo'llarini
- B. Taraqqiyotning manbaini, negizlarini
- V. Taraqqiyot jarayonida vorisiylikni
- G. Taraqqiyotning ichki va tashqi sabablarini

29. Narsa va hodisalarning tafovutli tomonlari, elementlari, xossalarinig rivojlangan shakli....

- A. ...qarama-qarshilikdir
- B. ... Ziddiyatdir
- V. ... Kurashdir
- G. ...Konflikdir

30.. Jahonning rivojlangan yirik davlatlari bilan rivojlanayotgan davlatlari o'rtasidagi munosabat... o'zaro ta'sirga kiradi

- A. O'z tarafiga og'dirishga
- B. Neytral'
- V. amkorlikga asoslangan
- G. Kurashga yo'q kishiga asoslangan

31. O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning evolyusion yo'lidan bormoqda. Bu yo'l eng avvalo,... qonuniga asoslanadi

- A. Miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish...
- B. Qarama-qarshi birligi va o'zaro ta'siri....
- V. Inkorni inkor.
- G. Ayrinim fanlar...

32. Qonunlar amal qilish doirasiga qarab... turlarga bo'linadi

- A. Moddiy va ruhiy dunyo
- B. Tabiat va jamiyat
- V. Dinamik va statik
- G. Xususiy, umumiy, eng umumiy

33. Me'yor deganda nimani anglaymiz?

- A) me'yor narsa va xodisaga xos xususiyatlardir;
- B) me'yor narsa va xodisalar o'z sifatini saqlab qoladigan miqdoriy chegaradir;
- V) me'yor narsa va xodisa o'lchovidir;
- G) me'yor narsaning bir sifat xolatidan boshqasiga o'tishidir.

34. Ayniyat nima?

- A) Ayniyat narsa va xodisalaridagi o'xshashlikdir;
- B) Ayniyat narsa va xodisalariga xos xususiydir;
- V) Ayniyat tafovutni inkor etuvchi xolatdir;
- G) Ayniyat tafovut laxzasini o'zida jo xolatdir.

35. Ziddiyatlar qanday ko'rinishlarga ega?

- A) Ziddiyat xamma narsada o'z ko'rinishiga ega;
- B) ziddiyat jamiyat va insonlar orasidagi munosabat ko'rinishiga ega;
- V) ziddiyat ichki va tashqi, asosiy va noasosiy bosh va bosh bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik ko'rinishlarga ega;
- G) ziddiyat kashfiyot ko'rinishiga ega.

36. Nega inkorni inkor qonuni deyiladi?

- A) narsa rivojining 2-bosqichida taraqqiyot sodir bo'lgani sababli shunday deyiladi;
- B) inkor kategoriyasidan bu qonunni farqlash uchun shunday deyiladi;
- V) voqelikdagi inkor to'la bo'lmagani uchun shunday deyiladi;
- G) inkor bir chiziqli bo'lgani sababli shunday deyiladi.

37. Konun nima?

- A)Dunyoni bilishning malumot bir boskichi
- B)Narsa va xodisalar urtasidagi ichki muxim,barkaror takrorlanib turadigan boglanish
- V)Tabiatdagi doimiy va muxim uzgarishlar
- D)Bir butun dunyo xakidagi umumiy boglanishlar nazariyasini ishlab chikarish usuli

38. Sifat tushunchasini izoxlang?

- A)Narsalarning uziga xos tomonlari,belgilari
- B)Narsalarning bir-biridan ajratib turuvchi xususiyati
- V) Narsaga moyillik bagishlovchi,uni boshkarish ajratib turuvchi barcha xossa va xususiyatlar yigindisi
- D)Xossa va xususiyatlar birligi

39.Me'yor deganda nimani anglaymiz?

- A) Me'yor narsa va xodisaar o'z sifatini saqlab qoladigan miqdoriy chegaradir
- B) Me'yor narsa va xodisaga xos xususiyatlardir
- V) Me'yor narsa va xodisa o'lchovidir
- D) Me'yor narsaning bir sifat xolatidan boshqasiga o'tishidir

40.Ziddiyatlar qanday ko'rinishlarga ega?

- A) Ziddiyat ichki va tashqi, asosiy va noasosiy bosh va bosh bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik ko'rinishlarga ega
- B) Ziddiyat xamma narsada o'z ko'rinishiga ega
- V) Ziddiyat jamiyat va insonlar orasidagi munosabat ko'rinishiga ega
- D) Ziddiyat kashfiyot ko'rinishiga ega

41.Nega inkorni inkor qonuni deyiladi?

- A) Narsa rivojining 2-bosqichida taraqqiyot sodir bo'lgani sababli shunday deyiladi
- B) Inkori kategoriyasidan bu qonunni farqlash uchun shunday deyiladi
- V) Voqelikdagi inkor to'la bo'lmagani uchun shunday deyiladi
- D) Inkori bir chiziqli bo'lgani sababli shunday deyiladi

42.Tarakkiyot nima?

- A) Narsa va xodisalarni pastdan yukoriga karab sifat uzgarishlari
- B) Dunyodagi jami xarakat va uzgarishlar
- V) Ma'lum doira ichida yuz berayotgan uzgarishlar
- D) Tarixiy utmishdan to xozirgacha bulgan uzgarishlar va jarayonlar

43. Qonun qanday vujudga keladi?

- A) Borliqda sodir bo'ladigan turli tuman o'zgarishlarning qayta-qayta takrorlanishini insonlar tomonidan bilib olinishi natijasida
- B) Jamiyatdagi tartibni muvozanatga keltirish uchun ma'lum bir kishilar tomonidan ishlab chiqiladi
- V) Jamiyatda va tabiat unga ehtiyoj bo'lganda
- D) To'g'ri javob berilmagan

44. Qonunlarni biz avvalom bor ikki guruxga tabiat qonunlari va jamiyat qonunlariga bo'lamiz. Tabiat qonunlari ob'yektiv ko'rinishiga ega jamiyat qonunlarida ham ob'yektivlik mavjudmi?

- A) Yo'q. Jamiyatda omil qiladigan qonunlar sub'yektiv ko'rinishga ega chunki ularni kishilar ishlab chiqadi
- B) Jamiyat qonunlarida ob'yektivlik va mavjud bo'lib ular inson hoxish istaklaridan tashqarida
- V) Jamiyat qonunlarida ob'yektivlik va sub'yektivlik bir xil darajada omil qiladi
- D) Jamiyat qonunlari ma'lum guruh kishilar ehtiyojini o'zida namoyon qiladi shu boisi u sub'yektivdir.

45. Jamiyat taraqqiyoti tezlashishi nimaga bog'liq.

- A) Jamiyat a'zolarining intellektual salohiyatiga
- B) Ishlab chiqarish vositalariga
- V) Qonunlarning qanchalik ko'p kashf qilinishiga
- D) Davlatda to'g'ri siyosat yuritilishiga

46. Har qanday narsa hodisaga miqdor va sinfiy o'zgarishlari xosdir narsa va xodisaning bir holatidan ikkinchi xolatiga tezlik bilan o'zgarishi miqdor o'zgarishi ta'sirida sodir bo'ladimi yoki sifat o'zgarishi asosidami

- A) Miqdor o'zgarishlari ta'sirida
- B) Miqdor va sifatning o'zgarishlari bir xil bo'ladi
- V) Sifat o'zgarishlarining ta'siri bo'lmaydi

D) Sifat o'zgarishlari asosida

47. Inkorni dialektik tushunish deganda nimani tushunasiz

A) Eskini yangi bilan oddiy almashinuvi

B) Yangining eski bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishi

V) Yangining eski bilan vorisiy bog'liq ekanligi

D) V va S javoblar to'g'ri

48. Davlat o'rniga yangi davlatning paydo bo'lishi, avlodlar ketidan yangi avlodlar kelishi, faning uzliksiz taraqqiyoti kabilarni falsafiy qonunlarning qaysi biriga kiritsak bo'ladi.

A) Qarama - qarshilik

B) Miqdorning sinfiy o'zgarishlariga o'tishi

V) Inkorni- inkor

D) Yuqoridagi qonunlarning barchasiga

49. Narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui bu—...?

A. Sifat

B. Qarshilik

V. Ziddiyat

G. To'g'ri javob yo'q

50. Sifat tushunchasiga ta'rif bering?

A. Narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui.

B. Narsaning tashqi ko'rinishi

V. Vorsiylikning amal qilishi

G. O'z-o'zini tashkillashtirish

GLOSSARIY

Aloqa -	falsafada aloqa deganda makon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yoki ob'yektning o'zaro aloqa jarayoni
Aloqa uchun asos -	aloqa yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi ayrim xossa, belgi yoki munosabat aloqa uchun asos
Ayniyat -	bir xillik, narsa, hodisa, jihatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga o'xshashlik munosabati.
Vorislik -	o'tmish bilan bugungi kun o'rtasidagi bog'liqlik, davomiylik, uzluksizlik
Dialektik ziddiyat –	bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshiliklarning bilvosita birligidir
Dogmatika -	yunoncha, uzgarmas, kotib kolgan, akida degan ma'nolarni anglatadi.
Eklyektika -	yunoncha tanlayman, degan ma'noni anglatadi. Uning moxiyati turli karama-karshi nazariyani, karashlarni korishtirib yuborishdan iborat.
Fan qonunlari-	odamlar tomonidan anglab yetilgan voqelik qonunlarining ongimizdagi in'ikosi hisoblanadi.
Falsafa qonunlari-	tabiat va jamiyatda insonning ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi qonunlar
Inkor -	rad etish, qabul qilmaslik
Miqdor-	predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi.
Me'yor-	bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i
Munosabat-	narsalarning o'zaro mavjudlik usuli, ularda yashirin xossalarning namoyon bo'lish omili
Progress -	oldinga tomon harakat, rivojlanishda quyi bosqichdan yuqori bosqichga utish, ilgarilab boradigan taraqqiyot.

<i>Qarama-qarshilik</i> -	narsalar va hodisalardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, xossalar, tendensiyalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya
<i>Qonun</i> -	olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir.
<i>Regress</i> -	orqaga tomon harakat, salbiy tomonga o'zgarish, ortga qaytish, yuqoridan quyi tomon borish
<i>Rivojlanish</i> -	bu progressdan iborat o'zgarish bo'lib, keng ma'noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakabga qarab ilgari lab boruvchi harakatdir.
<i>Sakrash</i> -	bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilishdir
<i>Sifat</i> -	narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, boshqa narsalardan ajratib turadigan xossa, belgi, xususiyatlarining birligidir.
<i>Sofistika</i> -	bilib turib, ataylab xato asoslar asosida, ko'p ma'noli suzlarga asoslanib, xato asoslardan yolg'on xulosa chikarish orkali fikr yuritishdir.
<i>Tafovut</i> -	avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir
<i>Tamoyil</i> -	yo'nalish, tendensiya, moyillik
<i>O'zaro ta'sir</i> -	narsalar bir-biriga ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan va ular bir-birini o'zgartirishiga sabab bo'ladigan aloqa
<i>Voqelik qonunlari</i> -	bizning ongimizdan, biz ularni bilish-bilmasligimizdan qat'iy nazar mavjud va amal qiladi.
<i>Xossa</i> -	predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi.
<i>Ziddiyatlar</i> -	narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir